

Sh.Sh.JURAYEV

GAZ NEFT QUVURLARI VA GAZ NEFT OMBORLARI



O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA’LIM, FAN, VA II VATSIYALAR VAZIRLIGI
NAMANGAN MUHANDISLIK - QURILISH INSTITUTI

Ro‘yxatga olindi:
№ _____

2024 y. “__” _____

«Tasdiqlayman»
O‘quv ishlari bo‘yicha prorektor
_____ Q.Inoyatov
“__” _____ 2024 y.

MUHANDISLIK KOMMUNIKATSIYALARI QURILISHI VA MONTAJI
KAFEDRASI

Sh.Sh.Jurayev

GAZ NEFT QUVURLARI VA GAZ NEFT OMBORLARI

FANI BO‘YICHA

O‘QUV - USLUBIY MAJMUA

Namangan – 2024

O‘UM “Gaz neft quvurlari va gaz neft omborlari” fanining namunaviy dasturi talablari asosida tuzildi.

Tuzuvchilar: Sh.Sh.Jurayev - NamMQI, Muhandislik kommunikatsiyalari qurilishi va montaji kafedrasi mudiri, dotsent

Taqrizchilar: A.A.Atamov - NamMQI, Muhandislik kommunikatsiyalari qurilishi va montaji kafedrasi dotsenti.
N.R.Xodjiyev – “Binolar va inshootlar qurilishi” kafedrasi dotsenti.

Fanning o‘quv uslubiy majmuasi Muhandislik kommunikatsiyalari qurilishi va montaji kafedrasining 2024 yil «___» _____dagi «_____» -son yig‘ilishida muhokamadan o‘tgan va fakultet kengashida muhokama qilish uchun tavsiya etilgan.

Kafedra mudiri: _____ Sh.Jo‘rayev

ANNOTATSIYALAR

Gaz-neft quvurlari va gaz neft omborlari mahsulotlari magistral quvurlarni qurish, gaz va neft omborlarini qurish va ularni ishlatish; gaz-neft quvurlari va gaz-neft omborlarini loyihalash va ularni hisoblash, gaz-neft quvurlari va gaz, neft omborlarini sinash va uning ishonchliligini bilishi va ulardan foydalanish masalalari quriladi.

Magistral gaz-neft quvurlarini loyihalash, magistral gaz-neft quvurlarini loyihalashda optimal trassani tanlash, uni qurish texnologiyasi va gaz – neft quvurlari va gaz-neft omborlarini loyihalash, ularni saqlash va uzatish masalalarini bu tizimlarni sinash, montaj qilish ishlari bo'yicha talabalarda bilim va kunikmalarni xosil qiladi.

Magistral gaz, neft, neft mahsulot quvurlarini tabiiy va sun'iy tusiklardan utishda loyihalash, quvurlarini har xil to'siqlardan o'tishda qurish masalalari va ularni ishlatish, sinash, gaz, neft va neft mahsulot omborlari haqida asosiy ma'lumotlar berish, gaz, neft va neft mahsulot omborlarida mahsulotlarni saqlash va ularni uzatish masalalarini yechish, gaz saqlash va taqsimlash stantsiyalarini loyihalash, neft omborlarida bo'ladigan jarayonlar bilan tanishish va ulardagi rezervuar parklarini loyihalash masalalari va shu ombordagi uskuna va jihozlar bilan tanishtirish va va shunga doir masalalarni yechish ularning asosiy maqsadi bo'lib hisoblanadi.

MUNDARIJA

№	Nomlanishi	bet
1.	O‘quv materiallari	6
1.1.	Ma’ruza materiallari	6
1.2.	Amaliy mashg‘ulot materiallari	77
2.	Mustaqil ta’lim mashg‘ulotlari	123
3.	Glossariy	125
4.	Ilovalar	
4.1	Fan dasturi	126
4.2.	Testlar	137
4.3.	Tarqatma materiallar	143
4.4.	Foydalanilgan adabiyotlar	149

1.1.Ma'ruza materiallari

1-MA'RUZA. Kirish. Respublikamiz neft va gaz sanoati buyicha ma'lumotlar. "Gaz neft quvurlari va gaz neft omborlari" bo'yicha asosiy ma'lumotlar.

Respublikamiz mustakillikka erishgandan so'ng neft va gaz mustaqilligiga ham erishildi. Respublikamizda yangi neft va gaz konlari topildi. Hozirgi kunda neft qazib olish 8 mln tonnaga yetmoqda. Respublikamida 25 ta neft omborlari va ularning filiallari mavjud. Iste'molchilarni neft va uning mahsulotlari bilan uzluksiz ta'minlashda, neft omborlari asosiy ma'nba bo'lib xizmat qiladilar. O'zbekiston Respublikasi sanoatida tabiiy gaz birinchi o'rinni egallaydi. Tabiiy gaz toshko'mir va mazutga qaraganda qulay va yuqori sifatli effektiv yoqilg'i hisoblanadi.

Tabiiy gaz iste'molchilar o'rtasidagi iste'moli yillik oylik, haftalik, kunlik va soatlik notekisliklar bilan harakterlanadi. Ayniqsa mavsumiy gaz iste'moli notekisligi juda yuqoridir.

Mavsumiy gaz notekisligini boshqarish, gazni avariya xodisasi yuz bergan va yuqori kuchlanganlik vaqtida berish uchun yer osti gaz omborlari tashkil qilinadi.

Er osti gaz omborlari qurilmalarini ishlatish – gaz iste'moli notekisligini tartiblashtirish va katta gaz hajmi zaxirasini tashkil qilish uchun eng qulay usul hisoblanadi.

Bu kursning maqsadi gaz neft omborlari bo'yicha boshlang'ich ma'lumotlarni berish, yer osti gaz omborlarini loyihalashni yangi uslublari bilan tanishtirish va ularni ishlatish usullarini maqbul tizimini tanlashdan iborat.

Bu kursni o'rganganimizdan sung sizlarda gaz neft omborlari haqida tushuncha paydo bo'ladi. Gaz neft omborlarini mustaqil loyihalash va ishlatish imkoniyatlar yaratiladi.

Hozirgi zamon texnologiyalari va xalk-ho'jaligining taraqqiy etishi bilan neft, neft mahsulotlari va gazga bo'lgan talab kun sayin oshib bormoqda. Mamlakat og'ir va yengil sanoati, transporti va qishloq hujaligi 200 turdan ortiq neft mahsulotlarini takomillashgan va arzon yoqilg'i sifatida elektr stantsiyalarida, metallurgiya va boshqa sanoat korxonalarida keng ishlatib kelmoqda. Tabiiy gaz kimyo sanoati uchun eng yaxshi xom ashyo hisoblanadi.

Gaz sanoati mamlakat umumiy energetika tizimining uzviy bir qismi hisoblanadi. Energiyani ishlab chiqarish, ishlatish va uni iste'mol qilish bir biri bilan chambarchas bog'lanib umumiy tizimga keltirilgan. Bu esa tizimning hamma tashkil etuvchilarning ishi yuqori darajada tashkil etilishini talab qiladi. Magistral quvur tarmoqlarining ortishi mamlakat ishlab chiqarish sanoatining yuksalishiga zamin

yaratib beradi. Energetik resurslarning uzluksiz ravishda va texnologik qurilmalarning o'ziga uzatilishi neft va gaz iste'mol qiluvchi korxonalarining texnik madaniyati va ish samaradorligini oshishiga omil bo'la oladi.

Mahsulotlarni iste'molchilarga katta va kichik partiiyalarda tarqatiladi. Katta partiiyalarda tarqatish, avtosisternalar yordamida amalga oshiriladi. Mahsulotlarni avtotsisternalarga quyish jarayoni avtoestakadada amalga oshiriladi. Avtoestakada sarflanayotgan mahsulot miqdorini nazorat qiluvchi qurilmalar bilan jihozlangan bo'ladi. Kichik partiiyalarda mahsulotlarni tarqatish: bochkalarda, bidonlarda, kanistralarda va turli polietilen idishlarda amalga oshiriladi. Mahsulotlarni kichik idishlarga quyish va qadoqlash, omborda o'rnatilgan quyuvchi va qadoqlovchi asbob-uskunalar yordamida amalga oshiriladi.

Neft mahsulotlarini chakana yo'l bilan chiqarish asosan iste'molchilarni markazlashgan xolda ta'minlashdan iboratdir. Yirik iste'molchilarga mahsulot neftbazalardan avtodetsisternalarda bochkalarda va idilarda chiqariladi. Yuqori iste'molchilarlar esa avto yoki g'az tarmoqlari orqali ta'minlanadi.

Avtotsisternalar, bochka, biton va boshqa shularga maxsus kuyuv asboblari orqali quyiladi. Moy va surkaladigan oylar kichkina idishlarga joyladi. Avtotsisternalarni plastik estakada bajariladi.

2-Ma'ruza: Gaz, neft mahsulotlarini fizik xususiyatlari.

Reja:

1. Neft, neft mahsulotlari va gazning fizik xususiyatlari.
2. Neft va neft mahsulotlarining solishtirma og'irligi, qovushqoqligi, issiqlik sig'imi, bug'lanishi, qotib qolish harorati, kengayish koeffitsienti, yonish harorati, portlanuvchanligi.

Har qanday gaz yoqilg'isi bir qancha oddiy gazlardan tashkil topgan bo'ladi. Bu gazlar ikki qismga bo'linadi: yonuvchi gazlar va yonmaydigan gazlar. Yonuvchi gazlar qatoriga vodorod N_2 , uglerod oksidi SO , metan SN_4 , etan $S_2 N_6$, propan $S_3 N_8$, butan $S_4 N_{10}$, pentan $S_5 N_{12}$ va boshqa og'ir uglevodorodlar, hamda vodorod sulfid $N_2 S$ kiradi.

Gazning yonmaydigan qismiga karbonat angidrid SO_2 , azot N_2 , kislorod O_2 va suv bug'lari N_2O kiradi. Yonuvchi gazlarning eng yengili vodorod N_2 bo'lib uning issiqlik berish qobiliyati 10800 kJ/m^3 . Bu gaz havodan yengil, rangi va hidi yo'k. Bu gaz asosan sun'iy gazlarda ko'p uchraydi. Uglerod oksidining issiqlik berish qobiliyati 12640 kJ/m^3 . Bu gaz o'ta zaharli bo'lib, uglerodning chala yonishi natijasida hosil bo'ladi. Bu gaz asosan, sun'iy gazlar tarkibida bo'ladi. Bundan tashqari, har qanday yoqilg'ining chala yonishi natijasida ham hosil bo'ladi. Metan gazi SN_4 asosan tabiiy gazlarning asosiy qismini tashkil qiladi. Uning issiqlik berish

qobiliyati 35840 kJ/m^3 . Bu gazning na rangi va na hidi bor. O'zi zararsiz. Metan gazi tabiiy gazlarning 90-98 %ni tashkil qilishi mumkin. Etan S_2N_6 , propan S_3N_8 , butan S_4N_{10} va boshqa uglevodorodlar ham yonuvchi gazlar bo'lib, ular asosan metan gazi ishtirok etgan tabiiy gazlar tarkibida uchraydilar.

Ulardan tashqari tabiiy va yo'ldosh gazlarning tarkibida suv bug'lari, smola zarrachalari, chang, ammiak, vodorod, vodorod sulfid uchray turadi. Vodorod sulfid N_2S zaharli bo'lib, odam organizmiga kuchli ta'sir qiladi, bundan tashqari gaz tarkibidagi suv bug'lari bilan birikib sulfat kislota hosil qiladi va gaz quvurlarining metalini, kuzon hamda sanoat pechlarining metall qismlarini yemirib, ishdan chiqaradi. Shuning uchun iste'molchilarga berilayotgan gazning tarkibida vodorod sulfidning miqdori 2% dan oshmasligi kerak.

Gazning issiqlik berish qobiliyati.

Gazning issiqlik berish qobiliyati deb 1 m^3 gaz yonganda (havoning ortiqchalik koefitsienti $\alpha * 1$ va chala yonish bo'lmaganda $q_3 * 0$) hosil bo'lgan issiqlik miqdoriga aytiladi kJ/m^3 .

Issiqlik berish qobiliyati ikki xil bo'ladi:

- *yuqori issiqlik berish qobiliyati;*
- *quyi issiqlik berish qobiliyati;*

Yuqori issiqlik berish qobiliyati yonilg'i tarkibidagi vodorod yonganda hosil bo'ladigan suv zarrachalarini bug'lantirish uchun sarf bo'lgan issiqlik miqdorini ham o'z ichiga oladi. Texnik hisoblarda undan foydalanilmaydi.

Quyi issiqlik berish qobiliyati esa yonishda hosil bo'lgan suv zarrachalarini bug'lantirish uchun ketgan issiqlikni hisobga olmaydi. Shunday qilib, tabiiy gazlar uchun yuqori va quyi issiqlik berish qobiliyatining farqi taxminan 4200 kJ/m^3 tashkil qiladi. Gazlarning issiqlik berish qobiliyatini ikki xil usulda aniqlash mumkin :

- *kalorimetrik usul;*
- *hisobiy usul.*

Kalorimetrik usulda tekshirilayotgan gazning ma'lum miqdori kalorimetr jihozida yoqib, undan ajralayotgan issiqlik miqdori aniqlanadi.

Hisobiy usulda ishlatilayotgan gazning tarkibi ma'lum bo'lsa, qo'yidagi formula bilan issiqlik berish qobiliyati aniqlash mumkin:

$$Q_H^P = 0,01 \left[Q_{H_2S} \cdot H_2S + Q_{CO} \cdot CO + Q_{H_2} \cdot H_2 + \Sigma (Q_{C_mH_n} \cdot C_mH_n) \right] \text{ kJ/m}^3$$

bu yerda

Q_{H_2S} , Q_{CO} , Q_{H_2} , $Q_{C_mH_n}$ gaz tarkibida ayram oddiy gazlarning issiqlik berish qobiliyatlari, kJ/m^3

H_2S , CO , C_mH_n gaz tarkibidagi oddiy gazlarning protsent miqdori.

Gazning zichligi

Ko'pchilik gazlar yengil bo'lib, gaz chiqa boshlaganda yuqoriga harakat qiladi. Tabiiy gazning zichligi havoning zichligidan kichik bo'lib $\rho * 0,7 \div 0,8 \text{ kg/m}^3$ ni tashkil etadi.

Suyultirilgan sun'iy gazlar esa havodan og'ir bo'lib, zichligi

$$\rho * 2,0 \text{ kg/m}^3$$

Shuning uchun suyultirilgan gazlar quvur yoki gaz jihozlaridan nazoratsiz chiqa boshlasa, yer bo'ylab tarqalib, chuqurlik joylarni gaz bilan to'ldiradi va bu yerlarda uzoq saqlanib portlash xavfini vujudga keltiradi.

Gazning alangalanish harorati

Gazning yonishi bu yonuvchi gaz zarrachalarini kislorod bilan reaksiyaga kirishidir. Bunda ma'lum miqdorda issiqlik ajralib chiqadi. Tabiatda har bir narsa kislorod bilan birikadi. Shu qatorda gaz ham. Lekin bu jarayon odatda juda sekin boradi. Agarda gaz havo aralashmasini qizdirsak yoki ochiq alanga ta'sir qildirsak, bu jarayon juda ham tezlashib ketadi. Alangalanish boshlangan harorat, alangalanish harorati deyiladi.

Har xil gazlarning alangalanish harorati har xil bo'ladi. Masalan, vodorod gazi 510°C da, uglerod oksidi 610°C da

metan 640°C :	etan 510°C ,
propan 510°C :	butan 475°C ,
pentan 475°C :	vodorod sulfidi 290°C
atsetilen 305°C da alanga oladi.	

Gazlarning portlash chegaralari

Agarda biror xajmda yoki xonada yonuvchi gazning miqdorini oshirib borsak, ma'lum darajaga yetganda tashqaridan berilgan issiqlik energiyasi hisobiga aralashma portlaydi.

Har qanday gazning quyi va yuqori portlash chegarasi bo'ladi. quyi chegara deb portlash xususiyatiga ega bo'lgan aralashmadagi gazning minimal kontsentratsiyasiga aytiladi.

Kontsentratsiyani oshirib borsak va tashqi issiqlik energiyasi ta'sir qilsak aralashmada portlash davom etadi. Gazning miqdorini oshirib borsak, kontsentratsiya ma'lum darajaga yetgandan keyin aralashma portlamaydi. Bu kontsentratsiyani gazning yuqori portlash chegarasi deyiladi.

Shunday qilib, aralashmadagi gazning miqdori quyi va yuqori chegaralar oralig'ida bo'lganda portlash sodir bo'lishi mumkin. Kontsentratsiya quyi chegaradan past bo'lganda portlash bulmaydi, chunki gaz molekulalari bir-biridan uzoqda joylashgan va ularning issiqlik energiyasi qo'shni molekulalarni yondirishga kuchi yetmaydi. Gazning kontsentratsiyasi yuqori portlash chegarasidan ko'p bo'lsa

portlash bo'lmaydi, chunki portlash uchun kislorod yetishmaydi. Lekin bunda gaz-havo aralashmasi alanganishi mumkin. Metan-havo aralashmasi portlaganda xonadagi bosim $R \cdot 0,75$ MPa chiqadi.

Propan- butan va havo aralashmasi portlashda esa bosim $R \cdot 0,86$ MPa gacha chiqadi. Agarda gaz aralashmasining tarkibi ma'lum bo'lsa, uning quyi va yuqori portlash chegarasini oddiy gazning portlash chegarasiga asoslanib Le-Shatelening qo'yidagi formulasi yordamida topish mumkin:

$$L = \frac{\frac{x_1 + x_2 + x_3 + \dots + x_n}{l_1 + l_2 + l_3 + \dots + l_n}}{\frac{x_1}{l_1} + \frac{x_2}{l_2} + \frac{x_3}{l_3} + \dots + \frac{x_n}{l_n}}, \%$$

L -gaz aralashmasining quyi yoki yuqori portlash chegarasi, %

$x_1, x_2, \dots, x_n$ -aralashma tarkibidagi oddiy gazning protsent miqdori

$l_1, l_2, \dots, l_n$ -aralashmadagi oddiy gazlarning quyi yoki yuqori portlash chegaralari.

Gazlardagi zaharli moddalar

Gazlar tarkibida odam organizmiga zaharli tasir qiluvchi va ulimga sabab bo'luvchi zaharli gazlar bo'lishi mumkin. Sun'iy gazlarda ko'proq zaharlovchi moddalar bo'ladi. Ular qatoriga uglerod oksidi SO , vodorod sulfidi N_2S , uglerod sulfidi S_2 va boshqa gazlar kiradi. Ulardan uglerod oksidi kuchli zaharlovchi modda bo'lib, qonning kislorod uzatish qobiliyatini yo'qotadi. Uning natijasida odam zaharlanib uladi. Shuning uchun uglerod oksidi miqdori xonada $0,02 \text{ mg/l}$ dan oshmasligi kerak. Bu gaz asosan sun'iy gazlar tarkibida bo'ladi, bundan tashqari u har qanday yoqilg'ining chala yonishi natijasida hosil bo'ladi.

Vodorod sulfid N_2S - sun'iy gazlar bilan bir qatorda tabiiy gazlarda ham uchraydi. Vodorod sulfid kuchli zahar bo'lib odam nerv tizimsini tez ishdan chiqarib, nafas olishi yoki yurak urishini to'xtatadi va ulimga olib boradi. Bu gazning xonadagi kontsentratsiyasi $0,001 \text{ mg/l}$ dan ko'p bo'lmasligi kerak. Shahar gaz tarmoqlariga beriladigan tabiiy gaz tarkibida vodorod sulfid miqdori har 100 m^3 ga 2 gr. oshmasligi kerak. Kommunal-xo'jalik iste'molchilariga yuboriladigan suyultirilgan gaz tarkibida esa 100 m^3 gazda 5 gr. dan oshmasligi kerak.

Gazlarning fizik ko'rsatkichlari

No	Nomi	Ifodasi	Zichligi ρ kg/m^3	Havoni nisbatan zichligi	Q_n^r kJ/m^3	Q_v^r kJ/m^3	Quyi port. chegara rasi %	Yuqori port. chegara garasi %	Alanganish $^{\circ}\text{C}$
1	Havo	-	1,2928	1	-	-	-	-	-
2	Azot	N_2	1,2505	0,9673	-	-	-	-	-
3	Vodorod	N_2	0,6899	0,0695	10800	12770	4,0	75	510

4	Uglerod oksidi	SO	1,25	0,9669	12640	12640	12,5	75	610
5	Uglerod ikki oksidi	SO ₂	1,9768	1,5291	-	-	-	-	-
6	Vodorod sulfidi	N ₂ S	1,5392	1,1906	23490	25460	4,3	45,5	290
7	Atsetilen	S ₂ N ₂	1,1707	0,9055	56900	58910	2,5	80	305
8	Metan	S N ₂	0,7168	0,5545	35840	39860	5,3	15	640
9	Etan	S ₂ N ₆	1,3566	1,049	63730	70420	3,2	125	508
10	Propan	S ₃ N ₈	2,019	1,562	93370	101740	2,4	9,5	510
11	Butan	S ₄ N ₁₀	2,7	2,078	122800	132900	1,86	8,4	475
12	Pentan	S ₅ N ₁₂	3,221	2,491	146340	158480	1,4	7,8	475

Mavzuni mustahkamlash uchun savollar

1. Neft mahsulotlarini fizik xususiyatlari deganda nimani tushunasiz ?
2. Neft mahsulotlarini ximik xususiyatlari deganda nimani tushunasiz ?
3. Neft mahsulotlarini qovushqoqligi nimalalarga bog'liq?

3-Ma'ruza: Suyultirilgan gazlarning asosiy tasniflari va ularni saqlash

Reja:

1. Gazlarning asosiy tasniflari.
2. Suyultirilgan gazning asosiy tasniflari.
3. Suyultirilgan gazlarni saqlash va ularning sxemalari.

Gazlarning asosiy tasniflari. Suyultirilgan gazning asosiy tasniflari. Suyultirilgan gazlarning zichligi. Suyultirilgan gazlarning xosliklari. Suyultirilgan gazlarni saqlash va ularning sxemalari. Suyultirilgan gazlarning rezervuarlari.

Tabiiy gazlar. Ular ikkiga bo'linadi:

1) **Toza gaz konlaridan chikuvchi gazlar.** Bunday gaz konlaridan toza tabiiy gaz qazib olinib, uning asosiy qismini metan SN_4 tashkil qiladi. Uning miqdori 92-98 % ga boradi. Qolgan qismini esa boshqa uglevodorodlar tashkil qiladi. Bu gazlarning issiqlik berish qobiliyati $34 \div 39 \text{ MJ/m}^3$. Bu gazlar havodan yengil.

2) **Yuldosh gazlar.** Bu gazlar yer osti qatlamlarida neft bilan aralash bo'lib, neftni qazib olish jarayonida u bilan birga chiqadi va yer satxiga chiqqandan sung bosim pasayish natijasida neftdan ajraladi. Shuning uchun uni yuldosh gaz deyiladi. Uning tarkibida metan miqdori $40 \div 60 \%$, qolgan qismini esa boshqa og'ir uglevodorodlar tashkil qiladi. Shuning uchun yuldosh gazlarning issiqlik berish qobiliyati yuqori, $45 \div 50 \text{ MJ /m}^3$ gacha yetadi.

Sun'iy gazlar. Ular turtga bo'linadi.

1) Qattiq yoqilgini havosiz joyda $900 \div 1100$ °C gacha qizdirish natijasida koks gazi xosil bo'ladi. Koks gazining issiqlik berish qobiliyati $16 \div 18$ MJ/m³.

Ularning asosiy qismini uglerod oksidi **SO** tashkil qiladi. Undan tashkari ularning tarkibini **SO₂**, **N₂S**, **N₂** va boshqa gazlar tashkil qiladi.

2) Koldiksiz gazifikatsiya gazlari. (generator gazlari). Bu gazlarni olishda kattik yokilgilar xavosiz joyda kizdirilib, undan keyin kizdirilgan massa orqali bosim ostida xavo, kislorod yoki suv bugi yuborilsa, bular yokilgi tarkibidagi yonuvchi moddalarni uzi bilan olib chikadi. Buning natijasida yonuvchi moddalarning bir qismi yonib, korbonad angidridga aylanadi. Kolgan kattik yokilgini tarkibida esa yonuvchi moddalar deyarli kolmaydi. Bu gazlarning issiqlik berish qobiliyati ancha past bo'ladi (taxminan 5,5 MJ/m³) va zaharli moddalar kup bo'ladi.

3) Bazi kumir konlarida kumir katamlarining kalin bulmaganligi sababli, ularni shaxta usulida kazib olish iktisod tarafdin maksadga muvofik bulmaganligi sababli bu kumir katamlari kazib olinmasdan, yer ostida kam xavo berib yokib, ularni gazga aylantiriladi va yer ustiga yonuvchi gaz sifatida (er osti gazifikatsiya gazlari) chikarib olib, maxalliy gazlashtirish sistemalarida ishlatiladi. Ularning tarkibi asosan uglerod oksidi SO, uglerod ikki oksidi SO₂, vodorod N₂ va boshqa gazlardan iborat bulib, issiqlik berish qobiliyati katta emas.

4) Neftni kayta ishlashda xosil bulgan gazlar. Neftni kayta ishlash zavodlarida neftni kizdirib undan benzin, kerosin, dizel yokilgisi va boshqa suyuk yokilgilar olinadi. Bu jarayonda neft tarkibidagi ba'zi bir ogir uglevodorodlar gaz xolda ajralib chika boshlaydi. Bu gazlarni yigib olinib, undan kichik maxalliy gazlashtirishda ishlatish mumkin.

Suyultirilgan uglevodorod gazlarini ishlab chiqarish va iste'mol qilish omborlarning xajmini oshirishga olib keladi. Uning natijasida SUG omborlari NG ni qayta ishlash zavodlardan mahsulotni qab. qilib oladi. SUG omborlarida quyidagi ishlar amalga oshiriladi: qab. qilish, saqlash va tarqatish SUG omborlari NG ni qayta ishlash zavodida gazni qab. qiluvchi, tarqatuvchi va gaz to'ldiruvchi stantsiyalarda ishlab chiqarishda tarqatiladi. SUG Lar bundan tashqari gaz quvurlarni bir me'yorda ishlatish uchun gaz notekisligini bartaraf etishda qo'llaniladi. SUG omborlarning xajmlari sig'implari komunal va qishloq xo'jaliklarida ishlatiladi. Agar SUG omborlarning mavjud bo'lmasligi gaz taminot bo'limida har xil murakkabliklarni keltirib chiqaradi. Gaz taminot bo'limining to'xtovsiz va yuqori darajada ishonchliligini ta'minlash maqsadida SUG omborlari tashkil qilinadi. Transport vositalarining harakatini shakllantirish maqsadida (SUG omborlari tashkil qilinadi) ularning o'rni kattalashtiriladi. Transport vositalarini ishlatishda SUG larni rezerv zaxirasi mavjud bo'lishi kerak. Shuning uchun ham SUG omborlarda rezerv

zaxiralar tashkil qilinadi. SUG larni ishlab chiqarishda va iste'mol qilishda yirik omborlarning mavjudligi yuqorida keltirilgan ma'lumotlarga asosan maqsadga muvofiq hisoblanadi. Omborlarni qurishda ishlab chiqarilgan 1 tonna SUG ularni 0,5-0,55 m³ sig'im kerak bo'ladi. SUG Lar uchun omborlar o'zining vazifasiga ko'ra quyidagi guruxlarga bo'linadi:

1. **A gurux omborlari** - bu omborlar asosan NQIZ lari tarkibida bo'ladi. Ularning xajmi QIZ dan chiqayotgan chiqarilayotgan SUG ning miqdoriga bog'liq bo'ladi.

2. **B gurux omborlari** - bunday omborlar kuzatuvchi omborlar hisoblanib, asosan transport vositalari uchun xizmat qiladi.

3. **V gurux omborlari** – bunday omborlar (yirik) iste'molchilari yirik sanoat korxonalari va aholisi ko'p shahar uchun tashkil qilinadi.

4. **G gurux omborlari** – bunday omborlarga gaz gaz taqsimlashni bartaraf etish uchun xizmat qiladi. Bunday omborlar uchun propan, butan gazlari ishlatiladi.

SUG larni saqlash bosim va haroratga bog'liq xolda 2 usulda amalga oshiriladi:

1. Atrof –muxit haroratida yuqori bosimda ya'ni, saqlanayotgan mahsulotning to'yingan bug' bosimida saqlash. Bu xolda rezervuarni hisobiy bosimi mahsulotni to'yingan bug' bosimida absolyut max. haroratiga bog'liq bo'ladi SUG ni bosim ostida saqlash uchun po'lat rezervuarlarlar, yer osti shaxtalari tuzni qatlashlari ishlatiladi.

2. Doimiy bosimda to'yingan bug'ni eng past bosimida izotermida saqlash. SUG larni izotermida saqlash quyidagi sig'implarda amalga oshiriladi:

1. po'lat issiqlik izotermik rezervlar. Bunday rezervlar tsilindrik va sferik ko'rinishiga ega bo'ladi. Sferik rezervlarda SUG larni saqlash uchun juda past bosim qo'llaniladi. Po'lat rezervlar yer ustida va yer ostida tashkil qilinishi mumkin

2. temir beton issiq izolyatsion rezervlar qanday rezervlarning konstruksiyasida metal bilan beton qorishmalari ishlatiladi.

3. yer osti muz jinslari rezervuarlari – bunday sig'implar asosan muzli xududlarda tashkil qilinadi .

3. Po'lat rezervlar sferik bo'lganligi sababli ularni ichidagi bosim bir xilda saqlanadi. Ularni montaj qilishda yer osti, yer usti va tuproqqa ko'milgan xolda o'rnatish mumkin. Yer ostida montaj qilinganda ular quyidagi rasmga asoslanadi:

Er ustida rezervuarlar montaj qilinganda atrof-muxitning harorati ya'ni rezervuar o'rab turgan xavoning harorati saqlashni texnologik jarayonga ta'sir ko'rsatadi. Suyultirilgan gazlarni yer ustida saqlashda maxsus harorat yoz vaqtidagi maxsus harorat bilan o'lchanadi. Shuning uchun ham maxsus harorat bo'yicha

rezervlarni mustaxkamligi belgilanadi. Rezervlarni yer ostida qilishda quyidagi chizmaga asoslanadi.

Tuproqni ko'mishdan asosiy maqsad rezervlarni atrof muxit saqlash, Respublikamizda asosan yer osti rezervlardan foydalaniladi. SUG Lar uchun uning asosiy sababi issiq issiq iqlimi SUG larni saqlashda haroratning o'zgarishi to'yingan bug' bosimini xosil bo'lishga olib keladi. Rezervdagi tax. harorat 323 K ni tashkil etish mumkin. Shu haroratga qarab rezervning devori mustaxkamligi hisoblanadi. Propan uchun to'yingan bug' bosimi 1,9g MPa ni tashkil etadi. Normann butan uchun esa 0,62 izobutan uchun 0,8. Shunday qilib SUG larni saqlashda harorat va bosim juda katta oraliqlarda o'zgaradi. SUGlarni saqlashda ko'p miqdorda metan sarfi kerak bo'ladi. Ularni sarfi hisoblashda iloji boricha yirik xajmlilarni tanlash zarur. Respublikamizning xajmi oshgan sari ularning xavfsizligi pasayadi. Shuning uchun ularni maxsus armaturalar bilan jihozlashadi. Bu armaturalar rezervlarga kerakli texnik xavfsizlikni ta'minlaydi.

Rezervlarga ketadigan maetal sarfini kamaytirish maqsadida ularni tabiiy saqlagichlarda saqlash maqsadga muvofiq hisoblanadi. Tajribalar shuni ko'rsatadiki, SUGlarni saqlash uchun tuzli qatlamlar barcha talablarga javob beradi. Tuzli qatlamlar asosan gonitdan iborat bo'ladi. Tuzli qatlamlarda saqlash 3 xil usulda xosil qilinadi:

- 1-tsirkulyatsion usul;
- 2-tomchisimon usul;
- 3-kombinatsiyalash usul

Har bir usul tuzli tosh qoldiqlarni yotqizilgan chuqurligiga qarab texnik iqtisodiy jixatdanbelgilanadi. Tuzli qatlamda saqlagich sifatida 100 m – 400 m oraliqda joylashganda ularda sig'imglar tashkil qilinadi.

Bunday saqlagichlar AQSH da, Kanadada, Frantsiyada juda miqdorda tashkil qilingan. Umumiy saqlagichlarni 20% ni tashkil qiladi. Ularda neft mahsulotlarini ham SUG larni ham saqlanadi.

AQSH da joylashgan saqlagichlarning 1 qudug'idan 40 milion m³ SUG olinadi. Quyidagi jadvalda rezervlarning asosiy ko'rsatgichlari keltirilgan.

Mavzuni mustahkamlash uchun savollar

1. Suyultirilgan gazning asosiy tasniflarini aytib bering.
2. Suyultirilgan gazlarning zichligi qanday aniqlanadi?.
3. Suyultirilgan gazlarning xosliklari.

4-Ma'ruza: Neft va gaz qazilmalari.

Reja:

1. Neft va gaz qazilmalari.

2. Gaz, neft qazilmalarining turlari.

1. Neft va gaz qazilmalari.

Respublikamiz sanoatida tabiiy gaz birinchi urinni egallaydi. Tabiiy gaz toshko'mir va mazutga qaraganda qulay va yuqori sifatli toza effektiv yoqilg'i hisoblanadi.

Mustaqillik e'lon qilingandan keyin O'zbekistonning 13 ta viloyati xalk xo'jaligida gaz ta'minoti katta darajada o'zgarishlar amalga oshirildi va yoqilg'i energetik balansida gaz xajmi oshdi.

Respublikamiz iste'molschilarini gaz bilan ta'minlashda asosiy tabiiy gaz manbasi Garbiy O'zbekiston konlari hisoblanadi. Bu konlardan olinayotgan gazdan oqilona foydalanish bo'yicha Respublikamiz xukumati 1990 yil gaz bilan ta'minlash to'grisida bir qancha qarorlar qabul qildi.

O'zbekistonda eng yirik gaz iste'molchilari bo'lib sanoati rivojlangan va aholisi ko'p bo'lgan viloyatlar va shaharlar hisoblanadi.

Asosiy iste'molchilarga: Toshkent, Sirdaryo, Navoiy va Fargona viloyatlaridir. Ular gaz iste'molchilarini 60 % ni tashkil etadilar. Respublikamiz gaz iste'molchilari qo'yidagicha taqsimlangan:

67,8% - xalk xo'jaligi;

17,8 % - eksport;

14,4 % - qayta ishlash va tashish;

Kam oltingugurtli gazni asosiy iste'molchisi bo'lib energetika korxonalari hisoblanadi. Ularga: (Toshkent, Navoiy va Angren GRES).

Keyinchalik gaz iste'moli xajmini gaz tejash bo'yicha texnik tashkiliy ishlarni tavsiya qilish hisobiga tartiblash mumkin. Ma'lumotlarga qaraganda Tasis guruxi tomonidan dastur ishlangan. Dastur «Energiya Resurslarini tejash konuni»ga muofiq ishlab chikilgan. Bu dasturga binoan Respublika xalk xujaligini gaz bilan ta'minlashda gazni 3-4 mlrd. m³ ga tejash mumkin. (ya'ni gaz hisoblagichlarni hamma iste'molchilarga quyish bilan gaz sarfi tejab ishlatiladi).

Gazni tashish qo'yidagi magistral gaz quvurlar orqali amalga oshiriladi:

1. Buxoro viloyat - Toshkent gaz quvur tizimi (BGR – Toshshkent) – uzunligi 1221 km (2-4ta tarmoq), quvur diametri 820, 1020, 1220. Bu tarmoq 699 km li Xovast – Fargona gaz quvurini ichiga oladi;
2. Muborak – Kogon gaz quvur tizimi, uzunligi 110 km (2 tarmoq) quvur diametri 1020 mm;
3. Disarnak – Buxoro – Samarkand – Toshkent (DBST) gaz tizimi, uzunligi 755 km (1-2 tarmoq), quvur diametri 720, 1020 mm. Bu tarmoq 112 km li Gazli – Kogon va 64 km li Oxangaron - Olmalik gaz quvurlarini ichiga oladi.

4. Shoʻrton – Muborak gaz quvur tizimi, uzunligi 99 km, quvur diametri 1020 mm (1 ta tarmoq)
5. Kelif – Muborak gaz quvur tizimi, uzunligi 274 km (1 ta tarmoq), quvur diametri 1020 mm;
6. Kelif – Dushanba gaz quvur tizimi, uzunligi 221 km (1-2 tarmoq), quvur diametri 530, 720 mm;

BGR – Toshkent va yuqorida keltirilgan magistral quvurlari murakkab aylanma gaz tizimi hisoblanib yiliga 50 mlrd. m³ gaz oʻtadi. (kuniga 136 mln. m³ ni tashkil etadi).

Bitta gaz tarmoq tizimidan iborat boʻlgan magistral gaz quvurlar:

1. Shoʻrton – Toshkent GRES, uzunligi 602 km va diametri 1020 mm.
2. Muborak – Navoiy, uzunligi 112 km, diametri 720 mm, bu gaz tizimida kam oltingugurtli gaz energetika korxonalariga va yirik sanoat isteʼmolchilariga tashiladi.

Oʻzbekistonning shimoliy gʻarbida alohida maydonda joylashgan quvvatli gaztransport tizimi yotqizilgandir. Ular:

1. Oʻrta – Osiyo – Markaz, uzunligi 169 km (4-5 tarmoq), quvur diametri 1200, 1400 mm;
2. Buxoro – Ural, uzunligi 489 km (2-3 tarmoq), quvur diametri 1020 mm. Bu trassa tizimida yirik isteʼmolchilar boʻlib, Nukus va Urganch shaxri, bundan tashqari Taxiatah GRES hisoblanadi.

1997 yil Gazli – Nukus gaz quvuri qurilib ishga tushirildi, uzunligi 350 km (quvur diametri 1220 mm). Bu magistral gaz tizimining ishga tushirilishi Xorazm viloyatini va Qorakalpogiston Respublikasini isteʼmolchilarini gaz bilan taʼminlash ishonchligini oshirdi.

1998 yil uzunligi 300 km, diametri 1220 mm boʻlgan Paxtakor – Yangier – Toshkent gaz quvuri qurib ishga tushirilib va kompressor stantsiya kengaytirildi (7 agregatdan iborat boʻlgan kompressor Yangiorni gaz bilan ishonchli taʼminlaydi).

Hozirgi kunda yangi 412 km boʻladigan Muborak – Gallaorol - Yangier gaz quvuri qurib bitirilmoqda.

«Uzgasloyiha» loyihalash instituti tomonidan Respublikamizning barcha isteʼmolchilarini gazlashtirish boʻyicha dasturlar ishlab chiqilgandir.

Hozirgi kunda shahar, kishlok va boshqa viloyatlarni gazlashtirilganlik darajasi ahamiyat oralikda tebranadi.

Eng past darajada gazlashtirilgan viloyatlarga qoʻyidagilar kiradi:

Surxandaryo – 36,4 %, Qashqadaryo – 35,2%, Namangan – 41,8% va Andijon – 45,3% , bundan tashqari Xorazm viloyati 78,5%, Samarqand – 71,4, Qoraqalpogʻiston Respublikasi – 72,3%.

1997 yil gazni ta'minlash tizimida gazning Respublika bo'yicha yo'qotilishi 522,61 mln. m³ ni tashkil etgan bu esa ishlab olinadigan gazni 1,5 % ni tashkil etadi.

1998 yilda 16,176 mln. kishi tabiiy gaz bilan ta'minlangan edi. 1999 yil 16,600 mln. , 2000 yil 17,288 mln. kishi, hozirgi kunda esa 18,46 mln. kishi gaz bilan ta'minlangan bu esa axolining 70 % ni tashkil etadi.

Eng yirik gaz iste'molchilarga qo'yidagilar kiradi:

Tashkent viloyati – 12,58 mlrd. m³ yoki 31,45 %

Tashkent shaxri – 3,9 mlrd. m³ yoki 9,97 %

Sirdaryo viloyati – 4,32 mlrd. m³ yoki 10,32 %

Navoiy viloyati – 3,33 mlrd. m³ yoki 8,3 %

Fargona viloyati – 3,31 mlrd m³ yoki 8,2 %

Har yiliga gaz iste'moli 0,52 mlrd. m³ gazga ko'payib bormoqda.

2002 yilning yakunida 2003 yildan boshlab gazni sotib olish to'grisida «Gazprom» bilan O'zbekiston o'rtasida shartnomalar tuzildi. (2013 yilga qadar). Bu shartnomaga asosan har yili Respublikamiz 10 mlrd. m³ gazni «Gazpromga» yetkazib beradi. Rossiya kompaniyalari va O'zbekiston o'rtasida gazni Ustyurt platosidagi Shaxta konidan gazni olish bo'yicha 15 yillik shartnomaga qo'l qo'yildi.

Bu loyiha 2004 yil kuzidan bajarila boshlagan investitsiya xajmi 15 mlrd. m³ ni tashkil etadi.

O'zbekistonda neft va gazni kazib olishning rivojlanishi, magistral quvurlarni tez suratlar bilan ko'rishni rivojlanishiga olib keladi. Hozirgi kunda «Uzbektranssgaz» tizimidagi magistral gaz quvurlarining uzunligi 15*10³ km tashkil etadi. Quvur transporti bilan bir qatorda neft va gazni tashuvchi boshqa transport vositalari ham rivojlanmoqda. Neft mahsulotlari va gazlarga bulgan talablarni oshishi ularning saqlovchi va yer osti va usti omborlarni rivojlanishiga olib keldi. Gaz ta'minoti bir xil bulishligini ta'minlash maksadida, gazlarni saqlashda har xil bosimda ishlovchi va turli xajmdagi gazogolderlardan va yer osti gaz omborlaridan foydalaniladi. Quvur uzatkichi deb, neft – gaz va neft mahsulotlarini kon xavzalaridan uzlari orqali ishlatish joyigacha tashuvchi quvur bo'limiga aytiladi. Hamma magistral quvur o'zatkichlar tarkibi quyidagi asosiy qismlarga bo'linadi.

1) quvur uzatkich; 2) neft xaydash va gaz kompressor stantsiyalariga bo'linadi.

Quvur uzatkich tizimlarini texnik iqtisodiy hisoblashlari fanini urganish bilan neft gaz quvurlari joylashish o'rnini saqlanadigan mahsulotlarni uziga xos xususiyatlarni hamda yutuqlarini narmativ ma'lumotlarini bilgan xolda loyihalalanadigan quvurlarni va neft mahsulotlarini tashishdagi transport turlarini texnik iqtisodiy ko'rsatkichlarni bilish mumkin. Fanning asosiy maqsadlaridan biri neft gaz quvurlarini transport turlarini ichida asosiy tashish vositasi ekanligini talablarga yetkazishdan iborat.

Quvur uzatkich tizimlari eng kulay transport vositasi ekanligi O‘zbekiston Respublikasi fanlar akademiyasi tomonidan tasdiqlangan bo‘lib kapital quyilmalarni iqtisodiy samaradorligini aniqlashning namunaviy usuliga muvofiq olib boriladi. Neft gaz uzatkichlari orqali istgichlarni neft va gaz mahsulotlari bilan ta‘minlash tizimidagi hozirgi va kulgusidagi istiqbolini hisobga olgan xolda loyihalash ishlarini olib borish mumkin.

Mavzuni mustahkamlash uchun savollar

1. Neft qazilmalari asosan yerning qaysi qatlamida joylashgan?
2. Gaz qazilmalari asosan yerning qaysi qatlamida joylashgan?
3. Neft mahsulotlarining asosiy xususiyatlari nimalardan iborat?

5-Ma’ruza: Gaz neft magistral quvurlari

Reja.

1. Gaz magistral quvurlari.
2. Neft magistral quvurlari.
3. Magistral quvurlarning klassifikatsiyasi.

1. Gaz magistral quvurlari.

1. Gaz utkazar quvurlar 2 klassiga bo‘linadi

1.klass. Ishchi bosimi 26 kgs/sm^2 (atm)- 100 kgs/sm^2

2.klass. Ishchi bosimi 12 -25 atm. (1,2-2,5 MPa. 1 atmq0,1 MPa

2. Neft’ va neft’ mahsulotlarini utkazar quvur 4 klassga bo‘linadi.Bu bo‘linish quvurni diametriga qarab bo‘ladi.

1.klass. neft’ va neft’ mahsulotlari urkazar quvurlar diametri 1000 ortik 1400 mm gacha.

2.klass. 500 ÷ 1000 mm gacha

3. klass.300 ÷500 mm gacha

4. klass. 300 gacha.

Magistral quvurlarni toifalarga bo‘linishi.

Magistral quvurlar ularga quyidagidan mustahkamlik talablariga ko‘ra quyidagi toifalarga bo‘linadi.

Magistral quvurlar toifalari.

Quvurlar	Er ostida	Ersatxi- da	Er ustida
Gaz utkazar quvurlari d = 1200 mm gacha	IV	IV	IV

d = 1200 mm dan yuqori	III	III	III
Neft' va N.M utkazar quvurlar			
d = 700 mm gacha	IV	IV	IV
d = 700 mm va undan ortik	III	III	III

Magistral quvurlarni qurish murakkabligi bo'yicha klassifikatsiyasi.

Magistral quvurlarni loyihalash davrida ularni qurish bo'yicha murakkabligi hisobga olinishi kerak. Bu ularni qurish davrida texnika bilan ta'minlash uchun zarur.

Qurilish ishlarining murakkabligiga karab magistral quvurlarning trassalari 3 ta toifaga bo'linadi.

Bir toifali uchastkalarga suv osti va suv usti o'tishlar kiradi. Qachonki daryo kengligi 50 m dan ortik bo'lsa. Batqoqlik qumlari mustahkamlangan bo'lsa. Bundan tashkari togli joylarda qiyalik 30 C dan ortiq va bu uchastkalarining uzunligi 100 m dan kam bo'lmasa.

2 toifali magistral quvurlarga suv osti va suv usti utishlari 50 dan kam bulsa. Barxon qumlari mustahkamlangan bulsa. Botqoqliklar 1 toifali bulsa, togli rayonlarda qiyalik 30 dan kam bo'lsa. Bundan tashqari temir yullardan yer osti va yer usti o'tishlar kiradi.

3 toifali 1 va 2 toifalarga kirmagan xollar kiradi.


Trassaning umumiy murakkabligi ularning uchastkalarini murakkabligiga qarab aniqlanadi.

1. Agar trassaning umumiy o'zgarishida 1 va 2 toifali qismlari 50 % gacha bulsa shu jumladan (toifali qismi 30 % gacha bulsa) trassa uta murakkab hisoblanadi.

2. Agarda trassaning umumiy o'zgarishida 1 va 2 toifali qismlari 15 % dan 50 % gacha bulsa, shu jumladan 1 toifali 10 % gacha bulsa, trassa yuqori murakkab deb hisoblanadi.

3. Agarda trassa umumiy o'zgarishida 1 va 2 toifali qismlari 15 % gacha bo'lsa trassa normal murakkablikka ega deb hisoblanadi.

Magistral gaz quvurlari tabiiy gazni qazib olingan joydan, ya'ni gaz konlaridan yirik gaz iste'molchilari, ya'ni shaharlarga yetkazib beradi. (4 rasm). Ular yirik va murakkab inshoot bo'lib, gazni xavfsiz va tejamli ravihda iste'molchilarga yetkazib berishga xizmat qiladilar. Ular asosan ikki va undan ortiq mustaqil gaz quvurlaridan iborat bo'lib, ayrim joylarda uzaro bog'lovchi gaz quvurlari bilan tutashgandir.



4-rasm. Magistral gaz quvurining printsiptial sxemasi.

PG-gaz koni quvurlari; PGRS -gaz konidagi gaz taqsimlash stantsiyasi; MG -magistral gaz quvuri; PKS -oralik kompressor stantsiyalari; GRS gaz taqsimlash stantsiyasi; PX- yer osti gaz ombori; LZA - magistral gaz quvuridagi berkitish uskunalari; PP - oraliq iste'molchi

Bu parallel gaz quvurlari o'zaro 30 ÷ 50 masofada olib boriladi. Bundan maqsad, biror gaz quvurida avariya bo'lsa yoki ta'mirlanayotgan vaqtda bir gaz quvurini berkitsak, ikkinchisidan gaz berish davom etadi.

Magistral gaz quvurlari shahar, posyolka, qishloklar hududidan o'tishi mumkin emas, chunki bunday gaz quvurlari xavfli hisoblanib, portlash va yongin chiqarishi extimoli bor. Bunda gaz quvuri bilan shahar chegarasidagi masofa quvurdagi bosimga qarab va inshootlarning turiga qarab 25 ÷ 250 m bo'lishi kerak.

Magistral gaz quvurlari murakkab inshoot bo'lib, ularning tarkibida gaz quvurlaridan tashqari, gaz yigish punktlarida gazni tozalash, bosimni tushirish, odorizatsiya qilish va boshqa inshootlari bo'ladi. Bundan tashqari ta'mirlash-ekspluatatsiya punktlari (REP), aloka va telemexanizatsiya inshootlari, gaz taqsimlash punktlari, GRS lar bo'ladi. GRS lar yirik shaharlarga kirishda o'rnatilib, ular gazning bosimini shahar gaz tarmoqlari uchun kerak bo'lgan darajagacha tushirib beradi. GRS larda odorizatsiya qilish ham mumkin va utayotgan gazning sarfi ulchanadi.

Kichikroq shaharlar bo'lsa, ularga kirishda nazorat sozlash punkti (KRP) o'rnatiladi. KRP lar ham GRS ga uxshab gazning bosimini pasaytiradi, sarfini ulchaydi va x.k. KRP lar GRS ga nisbatan kichikroq gaz sarfiga mo'ljallangandir. Magistral gaz quvurlari 1975 yilgacha 5,4 ÷ 5,5 MPa ga mo'ljallab qurilgan. 1975 ÷ 80 yilgacha 7,5 MPa ga mo'ljallab qurilgan. 1981 yildan boshlab 10 MPa ga qurilyapti.

Gaz magistral quvurdan uzatilayotganda uning bosimi quvur qarshiligini yengish uchun sarfi bo'lib pasayib boradi. Shuning uchun quvurdagi bosimni oshirib, gazni uzoq masofaga uzatish uchun taxminan har 150 km masofada kompressor stantsiyalari quriladi. Ular 3÷4 MPa tushib qolgan gaz bosimini oshirib, uni 7,5 yoki 10 MPa gacha ko'taradilar. Buning uchun quvvati 8÷10 ming kVt bo'lgan gaz xaydash agregatlari qo'llaniladi. Hozirgi davrda bosim 12 MPa ga mo'ljallangan magistralgaz quvurlari va quvvati 25÷75 ming kVt bo'lgan gaz xaydash turbinalari yaratish ustida ilmiy tadqiqot va loyiha ishlari olib borilayapti. Magistral gaz quvurlarida ta'mirlash ishlari olib borish uchun taxminan har 25 km masofa berkitish uskunalari (zadvijkalar) o'rnatiladi.

Magistral gaz quvurlari shahardan tashqarida, ekin eqilmaydigan, foydali qazilmalar qazilmaydigan, yer yuzasi nisbatan tekis bo'lgan joylar buylab yer osti usulida o'tkaziladi. Agarda magistral gaz quvurlari daryo, ko'l yoki katta jarliklarni kesib o'tadigan bo'lsa, ular parallel ravishda ikki joydan kesib o'tadi. Magistral gaz quvurlarini shahar, qishloq yoki sanoat korxonalari hududlari buylab o'tkazish mumkin emas, chunki gaz bosimi baland va portlash xavfi bor. Magistral gaz quvurlarining shaharga kirishdagi oxirgi inshooti GRS, bo'lib, undan keyingi bosim shahar gaz tarmog'i uchun kerak bo'lgan darajada bo'ladi, ya'ni yuqori bosim bo'lsa 0,3 ÷ 0,6 yoki 0,6÷1,2 MPa, o'rta bosim bo'lsa 0,005÷0,3 MPa gacha bo'ladi. Magistral gaz quvurining sutkalik o'tkazish qobiliyatiundan o'tish lozim bo'lgan yillik gaz sarfiga asosan qo'yidagi ifoda bo'yicha aniqlanadi:

$$q = \frac{Q}{365 \cdot K_z}$$

bu yerda:

Q - magistral gaz quvurining yillik o'tkazish qobiliyati, mln. m³/yil;

K_z - gaz quvurining o'rtacha yillik ta'minlangan koeffitsienti; K_z=0,85 qabul qilish mumkin.

Mavzuni mustahkamlash uchun savollar

1. Magistral quvurlar necha turga bo'linadi.
2. Magistral quvurlari toifalarga qanday bo'linadi.
3. Magistral quvurlarning trassalari necha toifalarga bo'linadi.

6-Ma'ruza: Gaz neft quvurlari va armaturasi.

Reja

1. Gaz neft mahsuloti ishlatiladigan quvurlar.
2. Quvurlar armaturasi turlari va ularning vazifalari.
3. Zadvijkalar, ventillar, kranlar.
4. Gaz-quvurlari va armaturasi.

1. Gazni transportida ishlatiladigan quvurlar.

Quvurlar armaturasi turlari va ularning vazifalari. Zadvijkalar, ventillar, kranlar

Suvli tusiklar.

Er tagida quvurlar suvni tusiklardan o'tkazilganda, u yerda bo'ladigan protsesslarni hisobga olish kerak. Shu protsesslarni hisobga olgan xolda va quvurlarni ishlatish vaqtida suvdan o'tkazilganda quvurlarni suv bilan yuvilishi, qirg'oq tayanchlarning ham yuvilishi mumkin.

Tog'lar.

Tog' uchastkalari deb, kundalang va uzunasiga bo'lgan qiyalik 10 °C ni tashkil qilgan yerlarga aytiladi. Bunday uchastkalarga bo'linishi shartli uchastkalarga kirib, quvurni yotkazishdagi ishlarni chegaralab, texnikani ishlatishda, uni hech qaerga mustahkamlab quymasdan ishlatilishi, va yana ish sharoiti xech qanday mexanizmsiz ishlashni tashkil qiladi.

Magistral quvurning trassasi tog' uchastkasidan utayotganda uzunasiga bo'lgan qiyalik (joy gorizontaliga perpendikulyar) kundalang va uzunasi bo'yicha qiyalik orqali o'tadi.

Chullar.

Qatlamning yuqori qismi qum, tuprok va toshli bo'ladi. Qumli chullar uzining qo'zgaluvchan va qo'zgalmas qumlari va shuningdek tuproqli qatlamlar bilan chegaralangan bo'lishi mumkin.

Botqoq.

Botqoq bu yer yuzasi uchastkasining namlik bilan bo'lishi va torf qatlamining quvvati 0,5 m va bir necha metrgacha bo'lishi mumkin. Loyihalash tajribasi shuni ko'rsatadiki, botqoqdan torf qatlami bo'lgan joylarda magistrallik quvur botqoq yuzasidan o'tkazish mumkin.

Quvur konstruksiyalarining ichki zurikish, ichki va tashqi nagruzkalar hisobiga bo'ladi. Bu nagruzkalar quvur atrofidagi muhitning o'zgarishi hisobiga va quvur orqali mahsulot parametrlari va boshqalar hisobiga uzgaradi.

Nagruzkalarga quvur ichidagi mahsulotning ichki bosimi, konstruksiya og'irligi, uskunalari, qatlam bosimi, yomg'ir, va boshqalar kiradi.

Ta'sir etuvchilarga: haroratlar o'zgarishi, qatlamning utirib qolishi, qatlam tuzilishi, seysmikasi.

Quvurning chiziqli qismida asosiy nagruзка-ichki bosim, qatlam bosimi, quvurning ogirligi va mahsulotining ogirligi. Ichki bosimni hisobga olish, quvurni mustahkamligini hisoblashda olinadi.

Boshqa nagruzkalar konkret sharoitga bog'liq bo'ladi. Qabul qilib olingan metod orqali mustahkamlikni hisoblanadi. Chegara xolati uchun hisobiy va normativ nagruzkalar bo'ladi.

Normativ nagruzka $N^{(n)}$ normativ xujjatlar asosida olinib, statik snaliz asosida aniklanadi.

Hisobiy nagruzka N^r , normativ nagruzkadan qanchalik farq qilishini ko'rsatadi.

$$N^r = n N^{(n)}$$

bu yerda n - nagruzkaning ko'payib ketish koeffitsienti.

Nagruzka va ta'sir etuvchilar doimiy, vaqtincha va alohida nagruzkaga bo'linadilar.

Doimiy nagruzkalarga qurilmani ishlatishda konstruktsiyalarga nagruzkalar quyilgan bo'lib, ular konstruktsiyalar tarkibiga kirgan (uzining massasi, qatlam bosimi, qatlam suvlari).

Vaqtinchaga esa, qurilmaning alohida konstruktsiyasi ta'sir qiluvchi nagruzka qandaydir aniq bir vaqt ichida (chegaralangan vaqt) bo'ladi. Bu nagruzkalar uzoq muddatli va qisqa muddatli bo'ladi.

Uzoq muddatli nagruzkalarga, statsionar uskunalarning, materiallarining massasi, rezervuarlardagi suyuqlik massasi va quvur orqali xaydalayotgan suyuqlik massasi, xaydalayotgan mahsulotning bosimi, konstruktsiyalardagi temperatura zurikishi (usiliya) kiradi.

Qisqa muddatli shamolning konstruktsiyasiga bulgan zurikishi, transport va montaj nagruzkalari, sinashga bulgan nagruzkalar va boshqalar, ya'ni bir necha sekund vaqt ichida ta'sir qiluvchi nagruzkalar va bir necha oy davomida (kor) ta'sir qiluvchi nagruzka bo'ladi.

Alohida nagruzkalar qurilmani texnologik ishlatish rejimi vaqtida o'zgarilishi, ya'ni (grunt) qatlamning o'zgarilishi (kuchirilib ketishi, yemirilishi) yer qatlamidagi nagruzkalari (seysmika) bo'ladi.

Quvurning chiziqli qismiga ta'sir qiluvchi nagruzkalar: quvurning uzining ogirligi. bu yerda -kurilma va konstruktsiyaning ogirligi, geometrik ulchamlari orqali aniqlanadi. $n = 1,1$ - nagruzkaning kupayib ketish koeffitsienti (peregruzka) qatlam bosimi konstruktsiyalarining xaqiqiy o'lchamlari va gruntning ko'rinishi.

Suvning gidrostatik bosimi:

Suvning bosimi har bir nuqtada joylashishiga boglik bo'lmaydi, ya'ni ta'sir yuza uchastkasining egilish burchagi, fakat suyuqlikning tekshirilayotgan nuktasi balandligi bilan aniklanadi.

Ichki bosim (normativ)

$$R = R_{t(n)} n$$

bu yerda $R_{t(n)}$ - hisobiy gazning bosimi (neft va boshqa)

n - nagruzka ko'payib ketmaslik nagruzkasi.

1 m quvurdagi mahsulotning ogirligi gaz uchun

bu yerda ρ - normal sharoitda gazning zichligi; n - nagruzka ko'payib ketishi ko'effitsienti R - ichki bosim; Z - gaz sikilish ko'effitsienti; T - absolyut harorat.


Neft va neft mahsulotlari

ρ_n - transport bulayotgan mahsulotning zichligi. Haroratlar ta'sir qilishi esa, haroratlar farqi $\Delta t = t - t_0$ va zurikishlar o'rtasida bog'liqlar bilan hisoblanadi.

- haqiqiy haroratlar kuchlanishi
- chiziqli kengayish ko'effitsienti
- egiluvchanlik moduli.
- haroratlar farqi (kichik qiymat t va t_0 asosida olinadigan konstruktsiyaning loyihadagi xolati)

Gazni berkitish uskunalari

Gazni yopish uskunalari iste'molchilarni, gaz quvurining ma'lum bulaklarini, hamda gaz jihozlarini berkitish uchun qo'llaniladi. Bular sifatida kranlar, zadviykalar (yopqichlar), hamda gidrozatvorlar (gidravlik yopqichlar) qo'llaniladi. Gidravlik yopqichlar (II-rasm) yer osti past bosim gaz quvurlarida ishlatiladi. Ular ayrim iste'molchilarni yopish uchun ishlatiladi. Buning uchun kover ochilib, gidrozatvor tikini ochiladi va gidrozatvorga suv quyiladi. Qo'yilgan suv gazning yo'lini to'sib, gaz o'tishini to'xtatadi. Gidrozatvorga faqat gazni berkitishga xizmat qiladi. Ular yordamida gazning sarfini o'zgartirish mumkin emas, faqat ochish yoki yopish mumkin.



12-rasm. Diametri 50 mm dan 150 mm gacha bo'lgan gaz quvurlari uchun gidrozatvor

UG-30 (a) va diametri 150 mm dan 200 mm gacha bo'lgan gaz quvurlari uchun gidrozatvor UG - 33 (b).

Gidrozatvorlar yerning muzlash qatlamidan pastda joylashishi kerak, chunki yig'ilgan kondensat muzlab, gazni yo'lini berkitib quyadi.

Gidrozatvorning yaxshi tomonlari: oddiy, gazni yaxshi berkitadi, ular gazdagi kondensatni to'plab, kondensat yiggich vazifasini ham bajaradi.

Kranlar va yopqichlar (zadviykalar)

Kichik diametrdagi gaz quvurlaridagi iste'molchilarni va gaz jihozini berkitish uchun kranlar ishlatiladi. Kranlar (13-rasm) germetizatsiya-zichlashtirish usuli bo'yicha ular tortiluvchan hamda salnikli kranlar bo'ladi.

Tortiluvchan kranlar past bosimda, salnikli kranlar esa asosan kommunal va sanoat korxona past va o'rta bosim quvurlarida ishlatiladi.

Materiali bo'yicha kranlar cho'yandan va bronza yoki latundan bo'lishi mumkin. Cho'yan kranlar (Ich.3bk) kam ochib yopiladigan joylarda ishlatiladi. Kranlar diametri 15 mm÷80 mm bo'lishi mumkin. Kranlarning gaz quvuriga ulanishi bo'yicha rezьbali (muftali), tsapkali va flanetsli bo'ladi.

Gaz jihozlarni gaz quvuriga ulash yoki ularni ajratib olish uchun krandan so'ng sgon o'rnatiladi.

Gazni yopish uskunalari qo'yidagi joylarda o'rnatiladi:


1. Kichik tuman gaz quvurining ayrim bo'limlarini berkitishda;
2. Taqsimlash gaz quvurlaridan ajralgan tarmoqlarda;
3. GRP larga kirish va chiqishda quyiladi; bunda ular GRPdan kamida 5m dan 100m gacha bo'lgan masofa oralig'ida bo'lishi kerak.
4. Sanoat korxonasiga kirish joyida devordan 2 m uzoqlikda bo'lishi kerak.

Zadvijkalar (15-rasm) yer osti gaz quvurlarida quduqlariga o'rnatiladi va ularning eng kichik diametri 50 mm bo'ladi. Zadvijkalar gazni berkitish hamda uning sarfini o'zgartirishga xizmat qiladi.


Materiali bo'yicha zadvijkalar ikkiga bo'linadi:

- 1) cho'yan ponasimon shpindeli chiqmaydigan zadvijkalar - 30 ÷47 bk DAST 1235-67. Ular bosim 0,6 MPa gacha bo'lganda ishlatiladi.
- 2) po'lat zadvijkalar 30 s 41 nj (3kl2-16). Bular gaz bosimi 1,6 MPa gacha ishlatiladi.


Bundan tashqari seysmikasi 8-9 ball bo'lgan rayonlarda hamma gaz quvurlarda ishlatiladi. chunki bunday rayonlarda cho'yan zadvijka yorilib ketishi mumkin.



a)



b)



v)

Zadvijkalar.

a-cho'yan parallel shpindeli chiquvchi zadvijka 30s7bk b-cho'yan ponasimon siljimas shpindelli zadvijka 30ch47bk v-po'lat zadvijka 30s41nj (ZKL 2-16)

Zadvijkalar yer osti gaz quvurlarida, gaz quduqlarida, oʻrnatiladi. Gaz quduqlari ikki xil boʻladi:

Ikki zadvijkalik temir-beton quduq.

1-parallel zadvijka; 2-ikki linzalik kompensator; 3-gaz quvuri.

Ular uchga boʻlinadi;

a) dumalok quduqlar; GI - IIP - I,8

b) toʻgʻri toʻrtburchak quduqlar; GI - IIP -I,8

v) ikkita zadvijkaga moʻljallangan quduqlar; G2-UP-2,1 va G2-SHK-1,8

Kranlar va zadvijkalar

Nomi	Turi	+oʻllanish joylari
Tiqinsimon, prujinalik, muftalik bronza kran $d_{sh} * 15,20$ mm	11B12bk	Xona ichkarisida va tashqarisida, yer usti gaz quvurlarida; $R_{ish} \leq 0,01$ MPa
Tiqinsimon, tortiluvchan, muftalik choʻyan kran $d_{sh} * 15,20, 25, 40, 50$ mm	11ch3bk	Yuqoridagiga oʻxshash
Tiqinsimon, moylanuvchan, salʼnikli muftalik choʻyan kran $d_{sh} * 15,20,25,40,50$ mm	11ch6bk1 1	Yuqoridagiga oʻxshash $R_{ish} \leq 1,0$ MPa
Tiqinsimon, moylanuvchan, salʼnikli flanetsli choʻyan kran $d_{sh} * 25,40,50,65,80,100$ mm	11ch8bk	Er usti va yer osti gaz quvurlarida $R_{ish} \leq 1,0$ MPa
Ikki gardishli ponasimon siljimas shpindelli choʻyan zadvijka $d_{sh} * 50, 80,100, 150$ mm DAST 1235-67	30ch47bk 4	Er usti va yer osti gaz quvurlarida $R_{ish} < 0,6$ MPa
Poʻlat zadvijkalar $d_{sh} * 50, 80, 100, 150, 200, 300$ mm	30s41nj (ZKL2-16)	Seysmik rayonlar 8 va 9 ball $R_{ish} \leq 1,6$ MPa

Agarda gaz qudugʻida 300 mm dan katta boʻlgan poʻlat zadvijkalar oʻrnatilsa, unda kompensator oʻrniga poʻlatdan yasalgan qiyshiq quvur boʻlagi oʻrnatiladi.

Mavzuni mustahkamlash uchun savollar

1. Gaz-neft quvurlari va armaturasi.
2. Quvurlar klassifikatsiyasi. Quvurlarni yotqizish.
3. Neft, neft mahsuloti va gazni transportida ishlatiladigan quvurlar.
atmosfera chiqib ketadi. Kechalari haroratning pasayishi natijasida, rezervuar ichidagi mahsulotning xajmini kamaishi va mahsulot bug'larini kondensatsiyalanishi sodir bo'ladi.

Bular o'z navbvtida, rezervuar ichidagi bosimni kamaytiradi, ya'ni ma'lum ko'rsatkichga ega bo'lgan vakuum hosil bo'ladi. Natijada, "nafas" oluvchi klapani ochilishi va u orqali yangi xavo oqimini rezervuar ichiga kirishi sodir bo'ladi. Bu jarayonlar natijasida, atmosfera to'xtovsiz bulg'anadi.

Katta nafas olishdagi xavoning bulg'anishi, rezervuarlarni mahsulotlar bilan to'ldirish va bo'shatish (to'kish) jarayonlarida sodir bo'ladi.

Amaliy ma'lumotlarga qaraganda, rezervuarlarni to'ldirishdagi, ya'ni katta nafas olishdagi yo'qotish yoz oylarida taxminan - 0,55 kgG'm³ni, qish oylarida - 0,35 kgG'm³ni tashkil etadi. To'kishda - 0,1 kgG'm³ni tashkil etadi.

Umumlashtirilgan holda, xajmi 5000 m³ li rezervuardagi katta nafas olishdagi yo'qotish: to'kishda 500 kg ni, to'ldirishda 2700 kg ni tashkil etadi.

Omborlarda mahsulotlarni katta va kichik "nafas" olishdagi yo'qotishlarni kamaytirish, quyidagi tadbirlar orqali amalga oshiriladi:

- yengil bug'lanuvchan mahsulotlarni pontonli yoki suzib yuruvchi qopqoqli rezervuarlarda saqlash;
- gaz bo'shlig'idagi ish bosim ko'rsatkichini oshirish; o'rta osiyo uchun 0,026 MPa gacha; o'rta klimatik zona uchun -0,015 MPa; qolgan janubiy rayonlar uchun 0,019 MPa.
- rezervuarlarni mahsulot bilan to'la to'ldirish, ya'ni rezervuarni qo'zg'almas qopqog'igacha to'ldirish;
- neft mahsulotlarini katta hajmdagi rezervuarlarda saqlash. Bunda rezervuar hajmini ortishi bilan, mahsulotning solishtirma yo'qotish miqdori kamaib boradi. Masalan,

Rezervuarlar hajmi, m ³	200	400	1000	2000	5000	10000
Yillik yo'qotish, %	5,75	5,0	4,25	3,75	3,25	2,75
- bir turdagi neft mahsulotlarini saqlovchi rezervuarlarni, umumiy «nafas» oluvchi rezervuar bilan tutashtirish;
- neft mahsuloti bug'larini ushlab, suniy sovutish va sorbtsiyalash yordamida kondensatsiyalash;
- rezervuarlarni oq rangga bo'yash;
- to'kish va quyish oralig'ini kamaytirish.

Neft omborlarida oqova suvlarni hosil bo'lishi va ularni tozalash.

Omborlardan foydalanish jarayonida, mahsulotlar bilan ifloslangan ishlab chiqarish va yomg'ir oqova suvlari hosil bo'ladi. Ishlab chiqarish oqova suvlariga quydagilar kiradi:

- rezervuarlardagi xosil bo'lgan mahsulot osti suvlari;
- mahsulotlardan bo'shagan idishlarni yuvishda hosil bo'lgan kondensat suvlari;

- xaydovchi nasoslarni sovutishda hosil bo'lgan suvlari;
- balast suvlari.

Katta neft mahsuloti omborlarida, bir sutka davomida 1000 m^3 gacha kichik omborlarda esa, $5-100 \text{ m}^3$ gacha oqova suvlari hosil bo'ladi. Ularning tarkibidagi neft mahsulotlarni miqdori $400-15000 \text{ mgG}^{-1}$ ni tashkil qiladi. Bu mahsulotlar suvda tomchi (suspensiya), emul'siya, kolloid zarachalari ko'rinishda va erigan xolda bo'ladilar (3-jadvalga qarang).

Bunday tarkibga ega bo'lgan oqova suvlarni, suv manbalariga oqizilsa katta sotsial va iqtisodiy qiyinchiliklarni sodir etadi.

Birinchidan, ichimlik maqsadida ishlatiladigan suv xavzalari bulg'anadi (yaroqsiz bo'ladi). Ikkinchidan suv xavzalarida yashovchi o'simlik va xayvonot dunyosining ekologik sharoitlari yomonlashadi, ayniqsa neftni yengil fraktsiyalari suv xavzalarida yashovchi tirik organizmlar uchun zararli hisoblanadilar. Bundan tashqari neft mahsulotlar suvning xidiga, mazasiga va fizik kimyoviy ko'rsatkichlarga katta ta'sir ko'rsatadilar.

Omborlarning oqova suvlari aralashmasining tarkibi. 3-jadval.

Ifloslanish ko'rsatkichlari	Miqdori mg/l	Ifloslanish ko'rsatkichlari	Miqdori mg/l
Neft axsulotlari shu jumladan: tomchi ko'rinishda	400-15000	Kuydirilgan quruq qoldiq	300-600
emulisiya ko'rinishda	350-14700	BPK ₅	140-700
erigan xolda	50-300 5-20	to'rit etil qo'rg'oshin [Rv (S ₂ N ₅) ₄] Aktiv reaksiya RNq _{7,2 ÷ 7,8} .	1-2.
suzib yuruvchi moddalar	600-800		

Tekshirish ma'lumotlariga ko'ra, tarkibida $0,5 \text{ mgG}^{-1}$ neft mahsuloti bo'lgan suvda, baliq bir sutka davomida bo'lsa, uning go'shtining mazasi o'sha mahsulotni ta'miga o'tib qoladi. $0,25 \text{ mgG}^{-1}$ bo'lganda 3 sutkadadan keyin, $0,1 \text{ mgG}^{-1}$ bo'lganda 10 sutkadadan keyin.

Neft mahsulotlarining zararli ko'rsatkichlarini hisobga olinib, yuza suvlarini oqova suvlar bilan ifloslanishidan himoya qilishi qoidasiga ko'ra, neft

mahsulotlarining suv xavzalari tarkibidagi ruxsat etilgan kontsentratsiyalashtozalash (REK) belgilangan:

- ichimlik va madaniy - maishiy maqsadlar uchun ishlatiladigan suvlarda, tiniq neft mahsulotlarining miqdorini (benzin, dizel yoqilg'isi, kerosin) – 0,1 mgG'l; neftning miqdorini -0,3 mgG'l qilib belgilangan.

- baliq xo'jaligi uchun ishlatiladigan suvlarda -0,3mgG'l qilib belgilangan.

Yuqoridagi talblarni hisobga olinib, hosil bo'lgan oqova suvlarini tozalash, ularning tarkibidagi neft mahsulotlarining miqdoriga, xosil bo'layotgan suvni hajmiga va uning tozalanish darajasiga ko'ra, tashkil qilinadi. Oqova suvlarni tozalash: mexanik; fizik–kimyoviyo va biologik usullar yordamida amalga oshiriladi.

Mexanik tozallash: filtrlash, tindirish jarayonlari yordamida bajariladi. Tindirish jarayoni bufer rezervuarida, qum va neft ushlagichlarda va qo'shimcha xavuzlarda aialga oshiriladi.

Mexanik tozallash usulda oqova suvlar tarkibidagi mexanik qo'shimchalardan va suspenziya ko'rinishdagi neft mahsulotlaridan tozalanadi. Oqova suvlarni tindirishda, suvdan yengil bo'lgan mahsulotlar yuqoriga ko'tariladi va og'ir bo'lgan mexanik zarrachalari esa pastga cho'kadi. Xosil bo'lgan cho'kmalar va neft mahsulotlari qabul qilingan texnologik rejimda ajratib olinadilar.

Mexanik tozallash tizimidagi qurilmalarni printsiipial texnologik chizmasi quydagicha.

Agar oqova suvining tozalanish darajasini oshirish kerak bo'lsa, fizik-kimyoviyoy tozalash qurilmalariga uzatiladi.

Fizik-kimyoviy tozalash, flotatorda (rezervuarlarda) bajariladi. Fizik tozalash usulining mexanizmi, oqova suv tarkibida xavo sharchalarini xosil qilish va ularni yuqoriga ko'tarilishida, o'zlari bilan suv tarkibidagi emul'siya ko'rinishidagi mahsulot zarrachalarini olib chiqishga asoslangan. Flotator ichidagi oqova suv tarkibidagi xavo sharchalarini xosil qilish mexanik, pnevmatik va vakuum usullari yordamida amalga oshiriladi.

Fizik-kimyoviy tozalashdan keyin, oqova suv tarkibidagi neft mahsulotlarining miqdori 15-20 mg/l gacha kamayadi.

“GAZ NEFT QUVURLARI VA GAZ NEFT OMBORLARI ” fanidan AMALIY MASHG‘ULOT MATERIALLARI

Amaliy mashg‘ulotlarda ta‘lim oluvchi talabalarning kasbiy ko‘nikmalarini rivojlantirish maqsadida o‘zlashtirilgan nazariy bilimlarga tayangan holda tegishli mavzular uchun zarur bo‘lgan ko‘rgazmali va uslubiy materiallar tayyorlash metodikalarini ham o‘rganib borish maqsadga muvofiqdir. Amaliy mashg‘ulotlarda nazariy olingan bilimlarni mustahkamlash maqsadida hayotiy masala va misollar yechimlarini hal etilishi ko‘zda tutiladi. Mashg‘ulotlarda zamoaviy tajriba uskunolari va informasion texnologiyalardan foydalanish talabalar bilimini yanada mustahkamlaydi. Ushbu fandan amaliy mashg‘ulotlarni quyidagi mavzularda tashkil etish tavsiya etiladi:

Amaliy mashg‘ulotlarni tashkil etish bo‘yicha kafedra professor-o‘qituvchilari tomonidan ko‘rsatma va tavsiyalar ishlab chiqiladi. Unda talabalar asosiy ma‘ruza mavzulari bo‘yicha olgan bilim va ko‘nikmalarini amaliy masalalar yechish orqali yanada boyitadilar. Shuningdek, darslik va o‘quv qo‘llanmalar asosida talabalar bilimlarini mustahkamlashga erishish, tarqatma materiallardan foydalanish, ilmiy maqolalar va tezislarni chop etish orqali talabalar bilimini oshirish, masalalar yechish, mavzular bo‘yicha ko‘rgazmali qurollar tayyorlash va boshqalar tavsiya etiladi.

1. Neft harakteristikasi. Neft va neft maxsulotlari gazning asosiy harakteristikasini aniqlash va uning: solishtirma og‘irligi, qovushqoqligi, issiqlik sig‘imi, bug‘lanishi, qotib qolish harorati, kengayish koeffitsienti, yonish harorati, portlanuvchanligini hisoblash. (4 soat)

2. Magistral quvurlar. Gaz-neft magistral quvurlari. Magistral quvurlarni loyihalash usullari. Magistral quvurlarni loyihalashdagi vazifalar. Magistral quvurlarning gidravlik hisobi. (4 soat)

3. Neft bazalarini loyihalash. Neft bazalarini loyihalash. Umumiy kerakli ma‘lumotlar. Loyihalash uchun vazifalarni aniqlash.

Mavzu: Gaz, neft mahsulotlarini fizik xususiyatlari.

Har qanday gaz yoqilg'isi bir qancha oddiy gazlardan tashkil topgan bo'ladi. Bu gazlar ikki qismga bo'linadi: yonuvchi gazlar va yonmaydigan gazlar. Yonuvchi gazlar qatoriga vodorod N_2 , uglerod oksidi SO , metan CH_4 , etan C_2H_6 , propan C_3H_8 , butan C_4H_{10} , pentan C_5H_{12} va boshqa og'ir uglevodorodlar, hamda vodorod sulfid H_2S kiradi.

Gazning issiqlik berish qobiliyati.

Gazning issiqlik berish qobiliyati deb 1 m³ gaz yonganda (havoning ortiqchalik koefitsienti $\alpha \cdot 1$ va chala yonish bo'lmaganda $q_3 \cdot 0$) hosil bo'lgan issiqlik miqdoriga aytiladi kJ/m³.

Issiqlik berish qobiliyati ikki xil bo'ladi:

- *yuqori issiqlik berish qobiliyati;*
- *quyi issiqlik berish qobiliyati;*

Quyi issiqlik berish qobiliyati esa yonishda hosil bo'lgan suv zarrachalarini bug'lantirish uchun ketgan issiqlikni hisobga olmaydi. SHunday qilib, tabiiy gazlar uchun yuqori va quyi issiqlik berish qobiliyatining farqi taxminan 4200 kJ/m³ tashkil qiladi. Gazlarning issiqlik berish qobiliyatini ikki xil usulda aniqlash mumkin :

- *kalorimetrik usul;*
- *hisobiy usul.*

Kalorimetrik usulda tekshirilayotgan gazning ma'lum miqdori kalorimetr jihozida yoqib, undan ajralayotgan issiqlik miqdori aniqlanadi.

Hisobiy usulda ishlatilayotgan gazning tarkibi ma'lum bo'lsa, qo'yidagi formula bilan issiqlik berish qobiliyati aniqlash mumkin:

$$Q_H^p = 0,01 \left[Q_{H_2S} \cdot H_2S + Q_{CO} \cdot CO + Q_{H_2} \cdot H_2 + \Sigma \left(Q_{C_mH_n} \cdot C_mH_n \right) \right] \text{ kJ/m}^3$$

bu yerda

Q_{H_2S} , Q_{CO} , Q_{H_2} , $Q_{C_mH_n}$ gaz tarkibida ayram oddiy gazlarning issiqlik berish qobiliyatlari, kJ/m³

H_2S , CO , C_mH_n gaz tarkibidagi oddiy gazlarning

protsent miqdori.

Gazning zichligi

Ko'pchilik gazlar yengil bo'lib, gaz chiqa boshlaganda yuqoriga harakat qiladi. Tabiiy gazning zichligi havoning zichligidan kichik bo'lib $\rho \cdot 0,7 \div 0,8 \text{ kg/m}^3$ ni tashkil etadi.

Suyultirilgan sun'iy gazlar esa havodan og'ir bo'lib, zichligi

$$\rho \cdot 2,0 \text{ kg/m}^3$$

SHuning uchun suyultirilgan gazlar quvur yoki gaz jihozlaridan nazoratsiz chiqa boshlasa, yer bo'ylab tarqalib, chuqurlik joylarni gaz bilan to'ldiradi va bu yerlarda uzoq saqlanib portlash xavfini vujudga keltiradi.

Gazning alangalanish harorati

Gazning yonishi bu yonuvchi gaz zarrachalarini kislorod bilan reaksiyaga kirishidir. Bunda ma'lum miqdorda issiqlik ajralib chiqadi. Tabiatda har bir narsa kislorod bilan birikadi. SHu qatorda gaz ham. Lekin bu jarayon odatda juda sekin boradi. Agarda gaz havo aralashmasini qizdirsak yoki ochiq alanga ta'sir qildirsak, bu jarayon juda ham tezlashib ketadi. Alangalanish boshlangan harorat, alangalanish harorati deyiladi.

Har xil gazlarning alangalanish harorati har xil bo'ladi. Masalan, vodorod gazi 510°C da, uglerod oksidi 610°C da

metan 640°C :	etan 510°C ,
propan 510°C :	butan 475°C ,
pentan 475°C :	vodorod sulfidi 290°C
atsetilen 305°C da alanga oladi.	

Gazlarning portlash chegaralari

Agarda biror xajmda yoki xonada yonuvchi gazning miqdorini oshirib borsak, ma'lum darajaga yetganda tashqaridan berilgan issiqlik energiyasi hisobiga aralashma portlaydi.

Har kanday gazning quyi va yuqori portlash chegarasi bo'ladi. quyi chegara deb portlash xususiyatiga ega bo'lgan aralashmadagi gazning minimal kontsentratsiyasiga aytiladi.

Propan- butan va havo aralashmasi portlashda esa bosim $R \cdot 0,86$ MPa gacha chiqadi. Agarda gaz aralashmasining tarkibi ma'lum bo'lsa, uning quyi va yuqori portlash chegarasini oddiy gazning portlash chegarasiga asoslanib Le-Chatelierning qo'yidagi formulasi yordamida topish mumkin:

$$L = \frac{x_1 + x_2 + x_3 + \dots + x_n}{\frac{x_1}{l_1} + \frac{x_2}{l_2} + \frac{x_3}{l_3} + \dots + \frac{x_n}{l_n}}, \%$$

L -gaz aralashmasining quyi yoki yuqori portlash chegarasi, %

$x_1, x_2, \dots, x_n$ -aralashma tarkibidagi oddiy gazning protsent miqdori

$l_1, l_2, \dots, l_n$ -aralashmadagi oddiy gazlarning quyi yoki yuqori portlash chegaralari.

Gazlarning fizik ko'rsatkichlari

№	Nomi	Ifodasi	Zichligi ρ kg/m ³	Havoni nisbatan zichligi	Q_n^r kJ/m ³	Q_v^r kJ/m ³	quyi port. chegarasi %	Yuqori port.chegarasi %	Alanganish °S
1	Havo	-	1,2928	1	-	-	-	-	-
2	Azot	N ₂	1,2505	0,9673	-	-	-	-	-
3	Vodorod	N ₂	0,6899	0,0695	10800	12770	4,0	75	510
4	Uglerod oksidi	SO	1,25	0,9669	12640	12640	12,5	75	610
5	Uglerod ikki oksidi	SO ₂	1,9768	1,5291	-	-	-	-	-
6	Vodorod sulfidi	N ₂ S	1,5392	1,1906	23490	25460	4,3	45,5	290
7	Atsetilen	S ₂ N ₂	1,1707	0,9055	56900	58910	2,5	80	305
8	Metan	S N ₂	0,7168	0,5545	35840	39860	5,3	15	640
9	Etan	S ₂ N ₆	1,3566	1,049	63730	70420	3,2	125	508
10	Propan	S ₃ N ₈	2,019	1,562	93370	101740	2,4	9,5	510
11	Butan	S ₄ N ₁₀	2,7	2,078	122800	132900	1,86	8,4	475
12	Pentan	S ₅ N ₁₂	3,221	2,491	146340	158480	1,4	7,8	475

Mavzu: Yer osti gaz omborida bufer gazni aniqlash.

Gaz ombori, yer osti gaz ombori — gaz saqlanadigan tabiiy yoki sun'iy rezervuar. Yer usti va yer osti G. o.lariga bo'linadi. Yer osti G.o. sanoat ahamiyatiga ega, chunki ularda katta miqsorda (bir necha mln.dan mlrd. m³ gacha) gaz saqlash mumkin. Yer osti G. o. samarasi juda yuqori hamda xavfsiz. G.o.ning xalq xo'jaligida yoqilg'iga bo'lgan mavsumiy talab o'zgaruvchanligini me'yorlashtirishda muhim iqtisodiy ahamiyati bor. Ularning bir turi neft yoki gazi tugagan bo'shliqlarda, Yerning suvli qatlamlarida (gaz suv ichiga qamaladi) qurilishi mumkin. Bunday omborlarda tabiiy gaz gaz holatida saqlanadi. Uning boshqa turi tashlandiq shaxta, tunnel, g'orlar, konlarning qazilgan yo'llarida quriladi. Tog' jinslari bo'shliqdarida gaz aksariyat hollarda atrof haroratida va 0,8—1,0 Mn/m² (8—10 kgk/sm²) va undan ortiq bosimda siqilgan holda saqlanadi. 60-yillardan boshlab tabiiy gazni sanoat miqyosida yer usti va yer osti omborlarida atmosfera bosimida, past haroratda, suyuq holatda saqlash qo'llaniladi. Ishlatib bo'lingan neft va gaz konlari o'rnida quriladigan G. o. arzon hamda qulay hisoblanadi.

Birinchi yer osti G. o. 1915 yil Kanada-da ishlatib bo'lingan kon o'rnida qurilgan. Gazni yer ostida saqlash AQSH da rivojlangan. Germaniya, Polsha, Fransiya va b. mamlakatlarda ham yer osti G. o.lari mavjud. Rossiyada dastlab 1958 yilda Samara viloyatida Bashkatov yer osti G.o. gazdan bo'shagan kon o'rnida bunyod etilgan. I. A. Charnovning nazariy ishi asosida yer osti suvli qatlamlarida gaz saqlash texnologiyasi dunyoda birinchi bor ishlab chiqildi (Sankt-Peterburg, Gatchinsk T.o.; 1963). Shyolkovsk G. o. dunyodagi yirik G.o.lardan biri [3,0 mlrd. m³ gaz 11 Mn/m² (PO kgk/sm²) bosimda saqlanadi].

O'zbekistonda asosan yer osti G. o.lari 60-yillar o'rtalaridan "O'ztransgaz" davlat birlashmasi tizimida kurila boshladi. 1965 yil O'zbekiston va Qozog'iston chegarasida birinchi T.o.— Pol-toratsk G.o. yer osti suvli qatlamida quriddi (45 burg'i qudug'i bo'lib, 1995— 96 yilgi mavsumda olingan gaz hajmi 345 mln. m³ bo'ldi). 1978 yilda esa O'zbekiston va Qirg'iziston xududida 1-Shim.So'x G.o. bunyod etiddi (72 burg'i qudug'i bo'lib, 1996 yilda undan olingan gaz hajmi O'zbekistondagi barcha G.o.lardan olingan gazning 14% ni tashkil qildi). 1983 yildan Qirg'izistonda Moylisuv G.o. qurildi (5 burg'i qudug'i bor; suv qatlamida yig'ilgan gaz radiusi 7—8 km ga boradi). 1984 yilda 2-Shim. So'x G.o. bunyod etilgan (45 burg'i qudug'i bor). 1988 yilga kelib Gazli G.o. quriddi (bu G.o. hajm jihatidan ancha katta bo'lib, 205 burg'i qudug'i bor). Bu G.o.dagi bosimning nihoyat pastligi (1,0 kgk/sm²) jahon tajribasidagi yagona holat sanaladi. 1999 yilda Xo'jaobod G.o. (Andijon viloyati) ning 1-navbati ishga tushiriddi. Hoz. barcha G.o.larning imkoniyatlari gaz iste'molidagi mavsumiy o'zgarishlarning 70— 75% ni tartiblashga yetadi.

Yer osti omboridagi gazning umumiy xajmi 2 ta qismdan iborat: faol (ishchi) va bufer (qoldiq) gazlar.

Faol gaz deb -xar yili gaz omboriga xaydaladigan va u yerdan olinadigan gaz xajmiga aytiladi;

Bufer gaz deb - gaz omborini ekspluatatsiya qilish davrida doimiy ravishda omborda mavjud bo'ladigan gaz xajmiga aytiladi.

Bufer gazi quyidagi maqsadlar uchun mo'ljallangan:

- Gaz olish oxirida omborda ma'lum miqdordagi bosimni hosil qilish, bu bosim ombordan olinayotgan gazning zarur bo'lgan debetini taminlash, yer qa'rini ximoya qilish talablari va is'temolchi xududlarga gazni transport qilish shartlarini bajarish uchun yetarli bo'ladi;

- Ombordagi suv xarakati (siljishi) ni kamaytirish;

- Quduqlarning o'tqazuvchanlik qobiliyati (debetini) oshirish;


- Kompressor stantsiyalarida gazni siqish darajasini kamaytirish uchun mo'ljallangan.

Bufer gazining xajmi qanchalik katta bo'lsa, ombordagi bosim va ma'lum bir quduqlarning debeti shunchalik katta bo'ladi, shuningdek ombordan gaz olish uchun mo'ljallangan quduqlarning umumiy soni va is'temolchilarga gaz yetqazib berishda yer osti gaz ombori kompressor stantsiyalarida gazni siqish darajasi shuncha kichik bo'ladi.

Yer osti gaz omboridagi bufer gazining xajmi tutqich (qopqon) ning yotish chuqurligiga, qatlam-kollektorining fizik-geologik parametrlariga, qatlam qalinligi va strukturasining yotish burchagiga, omborni ishlatish rejimiga, quduqlarni texnologik ishlatish rejimi va gaz olish oxirida quduq boshidagi gaz bosimining miqdoriga bog'liq bo'ladi. Bu bosim o'z navbatida is'temolchilar turiga (magistral gaz quvuri, metallurgiya yoki sement kombinatlari), ulovchi gaz quvurlarining uzunligi, diametri va o'tqazuvchanlik qobiliyatiga, quvurning oxirgi nuqtasidagi bosimga bog'liq bo'ladi.

Quyidagi 7-rasmda yer osti gaz omborini ishining ikkita mumkin bo'lgan sxemasi keltirilgan:

- a) nisbatan kichikroq qalinlikdagi qatlamda, kuchsiz sementlangan kollektorda hosil bo'lgan EOGOlari.
 b) katta qalinlikdagi mustaxkam sementlangan tutqichda hosil bo'lgan EOGOlari.



7-rasm. Yer osti gaz ombori sxemalari

P_u -qu

P_u - quduq ustidagi bosim; P_t - quduq tubidagi bosim; h - qatlam qalinligi; $GNTYu$ - gaz-neft ta'sir yuzasi; $SNTYu$ - suv-neft

Birinchi xolat (a) da gaz va suv ta'sir yuzasi orasida neft xoshiyasining mavjudligi, omborga suv bostirib kirishini qiyinlashtiradi, shu tufayli gazga to'yingan kollektor g'ovakli bo'shlig'ining xajmi diyarli o'zgarmaydi. Ombor g'ovakli bo'shlig'ini doimiy xajmda ishlatish rejimiga - gazli ishlatish rejimi deyiladi. Ba'zi bir quduqlarning gaz beraoluvchanligi, ya'ni

debitini cheklovchi sabablariga, qatlamning buzilishi va tog' jinslari bo'laklari xamda aloxidagi zarrachalarning quduq tubiga kelishini ko'rsatish mumkin. Buday xolat esa o'z navbatida quduqda qum tiqinlarining paydo bo'lishiga, favvora quvuri kalonnasi va quduq ustki qurilmalarining yemirilishiga, quduqning debitini nazorat qiluvchi va gaz sarfini o'lchovchi uskunalarning ishdan chiqishiga olib keladi.

Quduqlarni ishlatishning texnologik rejimini aniqlash quduq bilan ochilgan qatlam ustki qismidagi maksimal ruxsat etilgan bosim gradienti miqdori orqali amalga oshiriladi. Bufer gaz xajmini quyidagi tenglama bo'yicha aniqlash mumkin:

$$Q_{\bar{o}} = \Omega_{\kappa} \frac{\bar{p}z_a}{z\bar{p}_a},$$

bu yerda: Ω_{κ} - gazga to'yingan kollektor g'ovakli bo'shlig'ining xajmi, m^3 ; p - yer osti omboridan gazni olish oxirdagi qatlam govakli boshlig'i xajmi bo'yicha o'rtalashtirilgan bosim, kgk/sm^2 ; z -gazning siqilish darajasi.

Agar yer osti gaz ombori katta qalinlikdagi mustaxkam sementlangan tutqichda tashkil etilgan bo'lsa (7-rasm b). Bunday yer osti omborlarini ishlatish vaqtida qatlam tubidagi suvlar, ombordan gazni olish vaqtida yuqoriga, omborga gaz xaydash vaqtida esa pastga qarab xarakat qiladi. Qatlamning gazga to'yingan qismi o'zgarib turadi. Gazni olish jarayoni oxirida gazning bir qismi kollektorning suv bosmagan, qolgan qismi esa suv bosgan qismida qolib ketadi. Yer osti gaz omborini bunday sharoitda ishlash rejimiga tarang-suv tazyikli rejim deyiladi.

Agar gazga to'yingan kollektor-qatlam mustaxkam sementlangan tog' jinslaridan tashkil topgan deb qabul qilsak, unda u quduqlardan olinayotgan gazning debitini cheklamaydi. Lekin bu xolatda gazni ombordan olish jarayonida gaz-suv ta'sir yuzasi (GTSYu)da bosim bir tekis tarqalmagan bo'ladi. Bosimning eng kichik miqdori ishchi quduqlarning tubiga tug'ri keladi. Gaz olinishidan oldin gorizonta1 yuza bo'yicha tekis bo'lgan GSTYu deformatsiyalanib ishchi quduq tubida qatlam tagi suvlarining konusini xosil qiladi (7-rasm b shtrixlangan yuza). Qatlam suvlarining ishchi quduq tubiga konussimon

ko'tarilishi quduq tubining suv bosishiga, bu esa o'z navbatida qum tiqinlarining paydo bo'lishiga, ya'ni kuchsiz sementlangan gazli kollektorning buzilishiga va quduqlarning ishdan chiqishiga olib kelishi mumkin. Bunday yer osti gaz omborlaridagi ishchi quduqlar chegaraviy suvsiz debit texnologik rejimida ishlatiladi. Bu texnologik rejimda qatlam tag suvining konusi turg'un xolatni egallaydi. Quduq o'qi bo'yicha yuqoriga yo'nalgan konusning chuqqisidagi bosim gradienti qatlam suvining nisbiy og'irligiga teng bo'ladi. Yer osti gaz omborini bunday sharoitda ishlatish vaqtida gazni is'temolchilarga junatish uchun kompressor stantsiyasidan foydalanilmaydi.

Bufer gazining xajmini quyidagi tenglamadan aniqlash mumkin.

$$Q_b = \Omega_{ox} \frac{P_{sb} Z_a}{Z_{sb} P_a} + \alpha (\Omega_b - \Omega_{ox}) \frac{P_s Z_a}{Z_s P_a},$$

bu yerda: Ω_b, Ω_{ox} - qatlam g'ovakli bo'shlig'ining boshlang'ich (gaz olinishi boshlanmasdan) va oxirgi suv bosmagan xajmi, m^3 ; P_{sb}/Z_{sb} , P_s/Z_s - qatlam g'ovakli bo'shlig'ining suv bosmagan va suv bosgan qismidagi keltirilgan bosimlar, kgk/sm^2 ; α - suv bosgan qismning xajmiy gazlanganlik koeffitsienti.

Yer osti gaz omborlarini texnologik ishlatish sharoitlarini hisobga olgan xolda aniqlangan bufer gazining xajmi kup xollarda iqtisodiy talablarga javob bermaydi. Ya'ni bunda yer osti gaz omborini ishlatish davomida gazni saqlash uchun ketadigan xarajatlar minimal ko'rsatgichga ega bo'lmaydi. Bufer gazining o'zi esa ma'lum bir qiymatga ega bo'lgan maxsulot hisoblanadi. Shuning uchun xar 1000 m^3 bufer gazining narxi qancha yuqori bo'lsa, uning bir xil sharoitlarda ombordagi xajmi shuncha kam bo'lishi talab etiladi.

Bufer gazining xajmi texnologik omillardan tashqari quyidagilarga xam bog'liq bo'ladi:

- quduqlarni burg'ulash uchun ketadigan kapital xarajatlarga;
- quduqlarni ishlatishda ishlab chiqarish sarflariga;
- bufer gazi xajm birligining narxi va uni xaydash va to'ldirish uchun ishlab chiqarish sarflariga;

Mavzu: Yer osti gaz omborlarida gaz yo'qolishini aniqlash.

Xo'jaobod yer osti gaz ombori Andijon viloyatining Xo'jaobod tumanida joylashgan.

Xo'jaobod yer osti gaz ombori Shaxrixon - Xo'jaobod konlari tarkibiga kiruvchi bo'shatilgan gaz va neft gorizontlari asosida tashkil etilgan.

Gaz uyumi 2002 yilda № 500 – sonli quduqdan favvora bo'lganda aniqlangan bo'lib, u 2004 yilda ishga topshirilgan.

Xo'jaobod konining giologik tuzulishida paleozoy davridan boshlab to xozirgi davr tog' jinslari ham ishtirok etadi. Bu konda sanoat ahamiyatiga ega bo'lgan 11 ta maxsuldor qatlam aniqlangan.

Shu jumladan neogenda 1ta (ikkilamchi neft uyumi), paliogenda 5ta qatlam - II, V, VI, VII va VIII, bo'r (mel)da 4ta - XIX, XX, XXI, XXII va XXVIII qatlam yurda. Neogen va paliogen qatlamlari tarkibida birmuncha erigan gaz mavjud bo'lgan neft uyumlaridan tashkil topgan, bo'r (mel) va yurdagi qatlamlarda esa, XIX qatlamdan tashqari, uncha katta va to'liq neft bilan qoplamasiga ega bo'lgan gaz uyumlari rivojlangan bo'lib, faqat XIX qatlam sof gazdan tashkil topgan.

Xo'jaobod yer osti gaz omborini loyihalashtirish va tashkil etish jarayonida, asosan quyi bo'r (mel)dagi 4ta (XIX-XX-XXI-XXII gor.) maxsuldor qatlamdan foydalanish inkoniyati ko'zda tutilgan edi. Chunki bu qatlamlar yer osti gaz omborlariga qo'yilaigan talablarga xajmi, samarador qalinligi va uyumning o'lchamlari bo'yicha javob beradi.

Umuman, yer osti gaz omborini tashkil etish bo'yicha kurilayotgan uyum asosan, quyi bo'r (mel) va yur qatlamlarida rivojlangan.

XIX – qatlam neft va kondensat aralashmalaridan xoli bo'lgan tabiiy gazdan iborat.

XX-XXI-XXII – qatlamlar kichik neft qoplamali gaz uyumlaridan tashkil topgan.

Yer osti gaz omborini tashkil etishning 1 - bosqichida ishtirok etuvchi, gaz uyumli XIX – gorizontni quyidagi asosiy ko'rsatgichlar xarakterlaydi:

- qatlamning umumiy qalinligi 66 metrdan 44 metrgacha o'zgarib, o'rtacha 35 metrni tashkil etadi;
- qatlamning samarador qalinligi 11 metrdan 19 metrgacha o'zgarib, o'rtacha 15 metrni tashkil etadi;
- qatlamning g'ovakligi o'rtacha 10 %;
- qatlamning yutuvchanligi (проницаемость) 18 dan 56 м/сП gacha o'zgarib, o'rtacha 37,0 м/сП teng;
- uyumning o'lchamlari:
- uzunligi 2,8 km; - kengligi 1,1 km; - balandligi 110,0 m; - chuqurligi 1970 m.

Yer osti gaz omborini tashkil etishning 2 - bosqichida ishtirok etuvchi XX-XXI-XXII - gorizontlarni quyidagi asosiy ko'rsatgichlar xarakterlaydi:

- qatlam – kollektorning umumiy qalinligi 120 m;
- qatlamning samarador qalinligi, taxminan 40 m;
- qatlamning g'ovakligi taxminan 15 % ni tashkil etadi;
- qatlamning yutuvchanligi (проницаемость) 80 - 120 м/сП
- Uyumning o'lchamlari:
- uzunligi -3,8 km; - kengligi 1,6 km; - qatlam – kollektorning o'rtacha chuqurligi 2225 m.

Yer osti gaz omborini tashkil etish vaqtida XIX – gorizont qatlamidagi qoldiq gazning xajmi taxminan 60-65 mln m³ ni tashkil etib, stukturaga kirishdagi qatlam bosimi taxminan 70-75 kg k/sm² teng.

XX-XXI-XXII – gorizontlar qatlamidagi qoldiq gazning xajmi taxminan 90-100 mln m³ ni tashkil etib, stukturaga kirishdagi qatlam bosimi taxminan 95 - 100 kg k/sm² teng.

Yer osti gaz ombori qatlam-kollektoridagi gazning xajmini 3-xil usul bilan aniqlash mumkin:

1. Xajmiy;
2. Gazli yoki suv taz'yiqli rejimda ishlatilayotgan omborning gazlangan qismi xajmi bo'yicha o'rtalashtirilgan bosimning, olinayotgan gaz xajmi Q_d ga bog'liqligi qarab;

3. Gazni yer ostiga xaydash vaqtida ombordan siqib chiqarilgan suvning xajmiga qarab.

Gazni yer ostida saqlash jarayonida, gaz yuqotilishlarining taxminiy miqdorini aniqlash uchun omborga xaydalagan va olingan gaz xajmlarini o'lchashda to'plangan ma'lumotlardan foydalanish mumkin, shu bilan birga «Neytral bo'lim» deb ataluvchi vaqt oxiridagi qatlamning statik bosimi orqali xam aniqlash mumkin bo'ladi. «Neytral bo'lim» vaqtida yer osti gaz omboriga gaz xaydalmaydi xam olinmaydi xam. Bundan tashqari quduqlar radiometrik (neytronli gamma-korotaj) usul bilan tadqiqot qilinib gaz suv ta'sir yuzasi (GSTYu)ning xolati va suvlangan xududning xajmiy gazlanganlik koeffitsienti aniqlanadi.

Yer osti gaz omboridagi gaz balansini quyidagi ko'rinishda yozish mumkin:

$$\frac{\bar{P}_b Z_a}{\bar{Z}_b P_a} \Omega_g + \alpha_b (\Omega_b - \Omega_g) \frac{\bar{P}_s Z_a}{\bar{Z}_s P_a} = \frac{\bar{P}_{ox} Z_a}{\bar{Z}_{ox} P_a} \Omega_{ox} + \alpha_{ox} (\Omega_b - \Omega_{ox}) \frac{\bar{P}_{sox} Z_a}{\bar{Z}_{sox} P_a} + Q_d,$$

bu yerda: P_b , P_{ox} - Ombor g'ovakli bo'shlig'i gazlashgan xajmining gazni olishgacha va olish oxiridagi o'rtalashtirilgan bosimlari; P_a -atmosfera bosimi; P_s , P_{sox} - Ombor gazlashgan xajmining suv bosgan qismidagi gazni olishgacha va olish oxiridagi o'rtalashtirilgan bosimlari; Ω_b - yer osti gaz ombori g'ovakli bo'shlig'ining gaz bilan to'ldirilgan boshlang'ich xajmi; Ω_g , Ω_{ox} - ombor g'ovakli bo'shlig'ining gaz bilan to'ldirilgan qismidagi gazni olishgacha va olish to'xtatilgandan sungi xajmi; z_a , z_b , z_s , z_{sox} , z - mos bo'lgan bosim va qatlam xaroratlaridagi gazning o'ta siqiluvchanlik koeffitsienti; α_b , α_{ox} -suvlangan xududning boshlang'ich va oxirgi xajmiy gazlanganligi.


Yuqoridagi ifodadan P_{ox} ni aniqlasak:

$$\bar{P}_{ox} = \frac{\left[Q_x - Q_d - \alpha_{ox} (\Omega_b - \Omega_{ox}) \frac{\bar{P}_{sox} Z_a}{\bar{Z}_{sox} P_a} \right] \bar{Z}_{ox}}{\Omega_{ox}}$$

$$\alpha_{ox} = \alpha_b \left[1,49 - \varphi \left(\frac{\bar{P}_{sox}}{\bar{P}_s} - 0,3 \right)^2 \right]$$

bu yerda: Q_x – omborga xaydalgan gazning o'lchangan xajmi, m^3 ; α_b – boshlang'ich qatlam bosimida suvlangan xududning xajmiy gazlanganligi; φ - qatlamdan gaz olinish jadalligini xarakterlovchi koeffitsient.

Geologik ma'lumotlar asosida ombor g'ovakli bo'shlig'i gazlangan xajmining, qoldiq suvlangan (S_n)dagi gaz-suv chegarasi xolatiga bog'liqlik grafigi tuziladi.



8-rasm. Tutqich g'ovakli bo'shlig'i xajmi Ω ning gaz bilan to'yingan xudud balandligi h ga bog'liqlik grafigi

Agar yer osti gaz omboridagi xisoblangan bosim P_{xis} va o'lchangan bosim $P_{o'l}$ lar bir-biriga teng bo'lsa, gazning yer ostida sezilarli darajada yuqotilishi kuzatilmaydi. Agar $P_{xis} > P_{o'l}$ bo'lsa, u xolda gazning yer osti yuqotilishi kuzatilishi mumkin. Gazning yuqotilishini, ombor yuqorisida joylashgan qatlamlarda gaz

5-Amaliy mashg'ulot: Yer osti gaz omboridan gazni olish hisobi.

Yer osti gaz omboriga xaydalayotgan gaz kerakli bo'lgan bosimgacha kompressorlarda siqiladi. Bu siqilish jarayonida gazning harorati ko'tariladi va sovuganda suyuq moyga aylanadigan kompressor moyining bug'lari bilan ifloslanadi.

Quduq tubida kondensasiyalangan moy bug'lari qum zarralarini o'rab oladi, natijada xaydalayotgan gaz uchun go'vakli kanallar kisim yuzasi va fazali utqazuvchanlikni kamaytiradi. Bu esa o'z navbatida xaydalayotgan gaz sarfining kamayishiga va xaydash bosimining ortisiga olib keladi. Shuning uchun qizigan gaz quyidagi maqsadlar uchun sovutiladi:


- metalli favvora armaturasi, mustaxkamlovchi quvurlar birikmasi (obsadnaya kolonna) va quvur ortidagi sement toshida qo'shimcha haroratli kuchlanishlarni kamaytirish;
- sement toshining quvur birikmasidan ajralishi va yoriqlar hosil bo'lish xavfini kamaytirish;
- quduq zichligini saqlash uchun.

Gazni yer ostida saqlash jarayonida u suv bug'lari bilan to'yinadi. Gazni olish vaqtida esa gaz oqimi bilan birga yer ostidan turli xil qattiq aralashmalar (qum, gil zarrachalari, sement toshi va k.z.) chiqadi. Shuning uchun kup xollarda ombordan olinayotgan gaz qattiq aralashmalardan tozalanib, tomchisimon va bug' xolatidagi suvdan quritiladi.

Yer osti gaz ombori ustki qurilmalariga quyidagi talablar qo'yiladi:

1. ombordan olinayotgan gazga, gazni olish tuliq sikli va uni magistral quvurga uzatishda davomida uni maxsulot sifat darajasiga keltirguncha ishlov berish.
2. olinayotgan gazni maxsulot sifat darajasiga keltirish uchun gaz bosimidan foydalanish.
3. masofaviy boshqarish va nazoratni amalga oshirish.
4. atrof-muxit muxofazasi bo'yicha qonun talablariga javob berish.

Quyidagi 9-rasmda suv qatlamida hosil qilingan yer osti gaz omboriga gazni xaydash va olishning texnologik sxemasi keltirilgan



9-rasm. Gazni xaydash va olishning texnologik sxemasi

1- chang ushlagichlar tizimi; 2- kompressor sexi; 3-xavoli sovutgichlar; 4- siklonli separator; 5- ko'mirli adsorber; 6- keramik filter; 7-gaz tarqatish punkti; 8-quduqlar; 9-bo'shatish quduqlari; 10-nasos; 11-xovuz; 12,13-past va yoqori bosimli traplar; 14-quritish qurilmasi; 15-ikkinchi bosqich separatorlari; 16-tug'rilovchi shtuserlar 17-birinchi bosqich separatorlari;

Yer osti gaz ombori tarkibiga kompressor sexlari, gazni tozalash bo'limi va gaz tarqatish punktlari kiradi. Gaz tarqatish punktlarida xar bir quduqdan olinayotgan va xaydalayotgan gazning miqdori o'lchanadi, shu bilan birga gazni olish jarayonida tozalash ishlari xam amalgam oshiriladi. Gazlarni tozalash ochiq maydonlarga joylashtirilgan gaz separatorlarida amalga oshiriladi. Xar bir quduqda o'rnatilgan sarfulchagich va klapan (to'siq)lar maxsus xonalarga joylashtirilgan.

Gazni yer ostiga xaydash - Gaz magistral quvurdan shoxobcha orqali 2-2,5 MPa bosim ostida EOGO xududiga keladi va chang ushlagichlar tizimi (1)da tozalanib kompressor sexi

(2)ga junatiladi, u yerda gaz siqilib, uning bosimi 12-15 MPa gacha ko'tariladi. Siqilish jarayonida uning xarorati keskin ko'tarilganligi sababli gaz xavoli sovutgichlar (3) da sovutiladi. Shundan sung gaz, kompressor moyidan tozalanishga junatiladi. Tozalash bir necha bosqichda amalgam oshirilsdi: siklonli separatorlar (4), ko'mirli adsorberlar (5), va keramik filterlar (6) larda. Siklonli separatorlarda tozalash asosan ikki bosqichda amalga oshiriladi. Birinchi bosqichda - kondensasiyalangan og'ir uglevodorodlar va moy, ikkinchi bosqichda - kondensasiyalangan engil uglevodorodlar va koagulyatsiyalangan moy zarrachalari ushlab qolinadi. Ko'mirli adsorberlar moyning juda kichik zarrachalarini (diametri 20-30 *mkm*) ushlab qolish uchun mo'ljallangan. Sorbent sifatida silindr shaklidagi diametri 3-4 *mm* va uzunligi 8 *mm* bo'lgan faollashtirilgan ko'mirdan foydalaniladi. Sorbentlar bug' yordamida tiklanadi (regenerasiyalanadi). Gazni moy changlaridan surunkali tozalash keramik filterlarda amalga oshiriladi. Keramik filterlar - filterlovchi materiallardan tayyorlangan trubkadan iborat bo'lib, uning bir tomoni yopilgan. Barcha tozalash bosqichlaridan o'tgandan sung ham xar 1000 *m*³ gaz tarkibida 0,4-0,5 g kompressor moyi mavjud bo'ladi. Gaz moydan tozalanib va sovutilgandan sung gaz yig'ish kollektori orqali gaz tarqatish punkti (7)ga keladi va aloxidagi uzatgich quvur (shleyf)lar orqali EOGO quduqlari (8)ga junatiladi. Bungacha xar bir xaydavchi-ishchi quduqqa xaydalayotgan gazning miqdori o'lganadi. Suvli qatlamda hosil qilingan EOGOga xaydalayotgan gaz suvni qatlam chekkasiga siqib g'ovakli bo'shliqni egallaydi. Suvni g'ovakli bo'shliqdan siqib chiqarish jarayonini tezlatish uchun, qatlam chekkalaridagi bo'shatish quduqlari (9)dan suv olinadi va u yuqori (13) va past (12) bosimli traplarda gazzizlashtirilgandan sung, nasos (10) yordamida xovuz (11) ga junatilib u yerdan yutuvchi quduqlar orqali boshqa qatlamlarga xaydaladi.

Gazni olish – gaz ishlab chiqarish quduqlaridan aloxidagi uzatgich quvur (shleyf)lar orqali gaz tarqatish punktiga keladi. Gaz bosimi rostlovchi (redusiyalovchi) shtuser (16) orqali redusiyalanadi. Yer osti gaz omboridan chiqayotgan gaz o'zi bilan birga kollektor qatlamdan qum va namgachiliklarni olib chiqadi. Gaz bu aralashmalardan shtuserning ikki tomonida joylashtirilgan

Mavzu: Neft ombori rezervuarlar saroyining hajmini aniqlash.

Iste'molchilarni neft mahsulotlari bilan ta'mirlashda mahsulot omborlari asosiy manba hisoblanadi. Neft mahsulotlarini saqlovchi omborlar ikki guruhga: mustaqil neft mahsuloti omborlari va korxona qaramog'idagi neft mahsulotlarini saqlovchi omborlarga bo'linadi. Mustaqil neft mahsuloti omborlari (1-guruh) o'zlarining boshqaruv tizimiga ega bo'lib, neft mahsulotlarini qabul qilish, saqlash, iste'molchilarga taqsimlash va uzatish kabi vazifalarni o'taydi. Korxona qaramog'idagi (2-guruh) neft omborlari kichik sklad ko'rinishida bo'lib, ular neft mahsulotlarini saqlash hamda korxona sexlari va boshqa xo'jalik tarmoqlarini neft mahsulotlari bilan ta'minlash uchun xizmat qiladi. Ular to'g'ridan-to'g'ri xizmat qilayotgan korxona rahbariyatiga bo'ysunadilar. Neft mahsulotlarini esa shu hududda joylashgan taqsimlovchi yoki uzatuvchi neft omborlaridan oladilar.

Neft mahsulotlari omborlari rezervuarlar saroyining hajmiga ko'ra 3 toifaga bo'linadi. 1-toifa umumiy hajmi 100 ming m³ va undan ortiq bo'lgan neft mahsuloti omborlari; 2-toifa umumiy hajmi 20 ming m³ dan katta bo'lgan neft mahsuloti omborlari; 3-toifa umumiy hajmi 20 ming m³ gacha bo'lgan neft mahsuloti omborlari kiradi. Asosiy bajaradigan ishlarga ko'ra 1-guruh neft mahsuloti omborlari taqsimlovchi va uzatuvchi omborlarga bo'linadi. Taqsimlovchi neft mahsuloti omborlari o'z sferasi qaramog'idagi barcha korxonalar, tashkilot va boshq is'temolchilarga neft mahsulotlarini taqsimlash ishlarini bajaradi. Uzatuvchi neft mahsuloti omborlari esa bir transport orqali olib kelingan neft mahsulotlarini qabul qilib olib, keyin ularni boshqa transport vositasi orqali iste'molchilarga uzatadi. Neft mahsuloti omborlari yong'indan xavfsizlik talablariga ko'ra korxona va boshqa obyektlardan ma'lum uzoqlikda, maxsus ajratilgan maydonga joylashtirilgan. Ular orasidagi masofa qurilish me'yori va qoidalari asosida belgilanadi. Uzatuvchi neft omborlariga – Angren va Pop shaharlaridagi neft omborlari kirib, ularning rezervuar saroyining sigimi ni tashkil qiladi. Respublikamizda turli toifadagi 75 ta taqsimlovchi va ularning shoxobchalari bo'lib, umumiy rezervuarlar saroyininng hajmi 1176,46 ni tashkil qiladi. Ko'p miqdordagi neft va uning mahsulotlarini

saqlashda turli konstruksiya hamda hajmga ega bo'lgan po'lat va temir beton rezervuarlardan foydalaniladi. Neft mahsuloti omborlarining samaradorligi ularda o'rnatilgan barcha texnologik jihozlar, qurilmalar va asbob-uskunalarining ish faoliyatiga bog'liq bo'ladi. Texnologik qurilmalardan foydalanish jarayonida ularda: zanglash, materialdagi turli nuqsonlar, ishlatishda normativ talablarga amal qilmaslik sabablariga ko'ra, turli ko'rinishdagi ishdan chiqish va baxtsiz hodisalar sodir bo'ladi. Bularni o'z vaqtida bartaraf etish turli ko'rinishdagi profilaktirka ta'mirlash ishlari yordamida amalga oshiriladi va ularning ish faoliyati tiklanadi.

Neft ombori rezervuarlar saroyining hajmini aniqlash

Neft omborlarida bajariladigan asosiy texnologik hisoblaridan biri rezervuarlar saroyini hajmini aniqlash hisoblanadi.

Rezervuarlar saroyini hajmini aniqlash loyihalash vazifasini asosiy omillari hisoblanadi. Qabul qilinayotgan neft mahsuloti uchun yetarli rezervuarlar bo'lishi kerak. Neft omborining to'xtovsiz ritmik ishlashini ta'minlash uchun saroyning hajmi belgilangan tartibda aniqlanadi. Hajmini aniqlashda quyidagi talablar e'tiborga olinadi. Rezervuarlar saroyidagi rezervuarlar mukammal to'liq ishlanishi kerak. Ikkinchi talab rezervuar saqlanayotgan mahsulot turiga to'g'ri kelishi kerak.

Rezervuarlar saroyini harajati boshqa qurilmalarning harajatidan ancha qimmatdir. Neft omboridagi rezervuarlar saroyini hajmini aniqlash uchun neft omborini yillik almashinuvi saqlanadigan mahsulotning zichligi mahsulotning kelib ketish notekisligi hisobga olinadi. Neft omborining rezervuarlar saroyining hajmi quyidagi ifoda orqali hisoblanadi.

$$V_{py} = (q \cdot 10^3) / (\rho \cdot k_m \cdot k_a)$$

q - neft mahsulotining yillik miqdori, m^3

ρ - mahsulot zichligi kg/m^3

k_m - rezervuarning to'lish koeffitsienti

k_a - rezervuarning aylanishlar soni 1/yil

Misol: №1 Mazut – 843 – 1015 kg/m^3

Dizel yoqilg'isi – 831 – 863 kg/m^3

Benzin – 739 – 751 kg/m^3

Moy – 880 – 940 kg/m^3

Kerosin – 790 – 805 kg/m^3

To'lish koeffitsientining qiymati 0,95 – 0,97 orasida o'zgaradi. Aylanishlar soni 25 – 35 orasida olinadi.

Misol: №2 Neft omborining mos almashinuvi 2 million 400000 tonna, shundan 2 million tonna – benzin, 250000 tonna – dizel, 150000 tonna – kerosin bo'lsa, neft ombori rezzervuarlar saroyining umumiy hajmi aniqlang.

$$V_{\bar{o}} = \left(q_{\bar{o}} \cdot 10^3 \right) / \left(\rho_{\bar{o}} \cdot k_m \cdot k_a \right)$$

$$V_{\bar{o}} = \frac{2000 \cdot 10^3 \cdot 10^3}{732 \cdot 0,96 \cdot 27} = 0,1054 \cdot 10^6 = 105 \cdot 10^3 \text{ m}^3$$

$$V_d = \frac{250000 \cdot 10^3}{840 \cdot 0,96 \cdot 27} = 0,0114 \cdot 10^6 = 11,4 \cdot 10^3 \text{ m}^3$$

$$V_{\kappa} = \frac{15000 \cdot 10^3}{795 \cdot 0,96 \cdot 27} = 0,728 \cdot 10^6 = 7,28 \cdot 10^3 \text{ m}^3$$

$$V_{yM} = 105 + 11,4 + 7,28 = 123,68 \cdot 10^3 \text{ m}^3$$

Misol: №3 Neft omborida benzin, kerosin va mazut saqlanadi. Benzinnning miqdori 2 million 400000, kerosin – 1 million 900000, dizel – 2 million 150000, mazut 1 million 500000 tonna bo'lsa, rezervuarlar saroyining umumiy hajmi aniqlansin.

$$V_{\bar{o}} = \frac{q_{\bar{o}} \cdot 10^3}{\rho_{\bar{o}} \cdot k_m \cdot k_a} = \frac{2400000 \cdot 10^3}{745 \cdot 0,96 \cdot 27} = 0,1242 \cdot 10^6 = 124,2 \cdot 10^3 \text{ m}^3$$

$$V_{\kappa} = \frac{1900000 \cdot 10^3}{797 \cdot 0,96 \cdot 27} = 0,091 \cdot 10^6 = 91 \cdot 10^3 \text{ m}^3$$

$$V_d = \frac{2100000 \cdot 10^3}{845 \cdot 0,96 \cdot 27} = 0,0958 \cdot 10^6 = 95,8 \cdot 10^3 \text{ m}^3$$

$$V_M = \frac{1500000 \cdot 10^3}{900 \cdot 0,96 \cdot 27} = 0,0643 \cdot 10^6 = 64,3 \cdot 10^3 \text{ m}^3$$

Mavzu: Rezervuarlar turini aniqlash: kapital sarfi va metall sarfi bo'yicha tanalash.

Rezervuarlar turini aniqlash

Rezervuarlar saroyi hajmi aniqlangandan so'ng rezervuarlarni turini aniqlash talab etiladi.

Rezervuarlar turini tanlashda quyidagi talablarga e'tibor beriladi:

1. Rezervuarlar loyihada ko'rsatilgan me'yorlar asosida ularning soni aniqlanadi.
2. Engil uchuvchan mahsulotlar uchun rezervuarlar tanlashda parchalanishni kamaytirish uchun pantan, suzib yuruvchi qopqoqli rezervuar olinadi.
3. iloji boricha katta hajmli rezervuar olinadi. Uning asosiy sababi rezervuarining hajmi kattalashishidan parchalanish miqdori kamayadi.
4. Har bir turdagi mahsulot uchun kamida 2 ta rezervuar bo'lishi shart.
5. Bir xil konstruksiyaga ega bo'lgan rezervuarlarni ishlatish texnologik jarayonini soddalashtiradi.
6. Rezervuarlarni to'ldirishni maksimal darajada yetkazish.

Misol: №4 Mahsulotning yillik miqdori quyidagicha: 1 million tonna benzin, 300000 tonna dizel, 50000 tonna kerosin, 100000 tonna mazut. Ularning mos ravishda zichliklari 0,76, 0,82, 0,86, 0,96 g/sm³. rezervuarlarning aylanish koeffitsienti hammasi uchun 0,95. Rezervuarlarning aylanish koeffitsienti 30 ga teng bo'lsa, neft omborining rezervuar saroyining hajmi va turi aniqlang.

Rezervuarlar: 2000 m³, 3000 m³, 5000 m³, 10000 m³ li bo'lishi mumkin. Hamda 20000 m³ va 30000 m³ li ham bo'lishi mumkin.

$$20 = 159 \text{ t}$$

$$V=46 \text{ m}^3$$

$$30 = 210 \text{ t}$$

$$V_{bI}=210+81+81=472 \text{ m}^3$$

$$20 = 159 \text{ t}$$

$$V_{bII}=159+159+81=399 \text{ m}^3$$

$$20 = 159 \text{ t}$$

$$V_{bIII}=210+81+46+46=383 \text{ m}^3$$

Rezervuarlarni turini kapital va metall sarfi bo'yicha tanlash

Rezervuarlarni tanlashda kapital va metall sarf harajatlar inobatga olinadi.

Kapital sarf harajatlar deganda rezervuarlar saroyini qurish uchun sarflanadigan harajatlarga aytiladi.

Metall sarf harajatlar deganda 1 m³ rezervuarlarni qurish uchun sarflanadigan metall miqdori tushuniladi.

Masalan: 3000 m³ li rezervuarni qurish uchun sarflanadigan metall miqdori 540 tonna bo'lsa, kapital harajat 270000 – 300000 so'mni tashkil etadi. SHu sababli rezervuarlarni tanlashda ham kapital harajat hamda metall sarfi hisobga olinadi.

Misol: №5 Rezervuarlar saryining umumiy hajmi 330000 m³. SHundan 110000 m³ benzin uchun, 80000 m³ dizel yoyilg'isi uchun, 80000 m³ kerosin uchun, 60000 m³ mazut uchun mo'ljallanadi. Berilgan ma'lumotlar asosida rezervuarlar turi tanlansin. Kapital harajat

30000-270-300

20000-160-180

10000-82-90ming so'm

Rezervuarni tanlash:

1-variant

Benzin $110-30+30+30+30=120$

Dizel $80-30+30+30=90$

Kerosin $80-30+30+20=80$

Mazut $30+30=60$

2-variant

Benzin $110-30+30+30+20=110$

Dizel $80-30+20+20+10=90$

Kerosin $80-30+30+20=80$

Mazut $60-30+20+10=60$

3-variant

Benzin $110-30+30+20+20+10=110$

Dizel $80-30+30+10+10=80$

Kerosin $80-30+30+20=80$

Mazut $60-20+20+20=80$

Metall sarfi

1-variant

Benzin $110=210+210+210+210=840$ t

Dizel $80=210+159+159+81=630$ t

Kerosin $80=210+210+210=630$ t

Mazut $60=210+210=420$ t

2-variant

Benzin $110=210+210+210+159=789$ t

Dizel $880=210+159+159+81=609$ t

Kerosin $80=210+159+159=579$ t

Mazut $60=210+159+81=450$ t

3-variant

Benzin $110+210+159+159+81=819$ t

Dizel $210+210+81-81=582$ t

Kerosin $210+159+159=579$ t

Mazut $159+159+159=477$ t

Kapital sarf:

1-variant

Benzin $110=290+290+290+290=1160$ so'm

Dizel $80=290+290+290=870$ so'm

Kerosin $80=290+290+290=870$ so'm

Mazut $290+290=580$ so'm

2-variant

Benzin $110=290+290+290+170=1040$ so'm

Dizel $80=290+170+170+85=715$ so'm

Kerosin $80=290+290+170=750$ so'm

Mazut $290+170+85=545$ so'm

3-variant

Benzin $110=290+290+290+170+170+170+85=1005$ so'm

Dizel $80=290+290+85+85=750$ so'm

Kerosin $80=290+290+170=750$ so'm

Mazut $170+170+170=510$ so'm

Xulosa:

Benzin $110=210+210+210+159=789$ t

Benzin $110=290+290+290+170=1040$ so'm

Dizel $210+210+81-81=582$ t

Dizel $80=290+290+85+85=750$ so'm

Kerosin $80=210+210+159=579$ t

Kerosin $80=290+290+170=750$ so'm

Mazut $60=210+210=420$ t

Mazut $290+290=580$ so'm

Mavzu: Rezervuarlarning maqbul o'lchamini va mustahkamlik hisobi.

Rezervuarlarning mustahkamlik hisobi

Rezervuarlarning mustahkamlik hisobida konstruktsiyani ishonchliligi, havfsizligi va davomiyligi hisobga olinadi. Hisobning asosiy maqsadi vujudga keladigan kuchlanini hisoblab, bu kuchlanishga chidamlir rezervuar konstruktsiyasini yaratishdan iborat.

Po'latning markasi rezervuarning hisobi bo'yicha aniqlangan bo'lib, odatda 45 va 17 markali po'latlar ishlatiladi.

Rezervuarlarning mustahkamligini hisoblashda uning alohida elementlari va rezervuarning hajmi bo'yicha guruhlariga bo'linadi.

1-guruhga rezervuarlarning hajmi 10000 m³ va unan ortiq bo'lgan rezervuarlar kiradi. Bu rezervuarlar 16G2aF po'lat markalarini ishlatish tavsiya etiladi. 2-guruhga 10000 m³ gacha bo'lgan rezervuarlar uchun ST₃, ST₅, ST₄₅, markali po'latlarni ishlatish tavsiya etiladi.

Rezervuarlarning mustahkamligini hisoblash qurilish me'yorlari qoidalari asosida amalga oshiriladi. Hisoni bajarishda me'yoriy kuchlanish, ishlash sharoiti koeffitsienti, materialning ishonchldilik koeffitsienti hisobga olinadi. Hisobni bajarishda neft mahsulotining zichligi 900 kg/m³ deb qabul qilinadi.

Aylanma kuchlanish va meridional kuchlanish quyidagi ifoda orqali aniqlanadi.

Rezervuarlarning maqbul o'lchamini aniqlash

Rezervuarlarning maqbul o'lchamini aniqlashdan maqsad sarflanadigan metall hajmini aniqlash va har bir mahsulot turi uchun rezervuarlarning balandligi va radiatsiyasini aniqlashdan iborat.

Maqbul radius quyidagi ifoda orqali aniqlanadi:

$$r_M = \sqrt[4]{\frac{V \cdot \rho \cdot g}{\pi^2 \cdot \alpha \cdot \sigma_p}}$$

V - quriladigan rezervuarning hajmi;

ρ - saqlanadigan neft mahsulotining zichligi

g - ekin tushish tezlanishi

α - umumiy blbog'lar qalinligi

σ_p - hisobiy qrshilik yoki kuchlanish

$$\alpha = \delta_m + \delta_o$$

δ_m - rezervur devori tubining qalinligi

δ_o - qoplamaning qalinligi

Sarflanadigan metall hajmi quyidagicha aniqlanadi:

$$V_M^{\min} = V \cdot \left(2 \sqrt{\frac{\alpha \cdot \rho \cdot g}{\sigma_p}} + \frac{h \cdot \rho \cdot g}{\sigma_p} \right)$$

h - 1 belbog'ning balandligi

$$\text{Rezervuarlarning maqbul balandligi } H_M = \sqrt{\frac{\alpha \cdot \sigma_p}{\rho \cdot g}}$$

Misol №5 Berilgan ma'lumotlar asosida optimal o'lchamlar aniqlansin. 1–Neft mahsuloti uchun rezervuarining hajmi 3000 m³. Neft mahsulotining zichligi 750 m³. Rezervuar tubi devorining qalinligi 3 mm. Qoplamaning qalinligi 2 mm. Hisobiy kuchlanish 1275×10⁵ Pa. 1 ta belbog'ning balandligi 1490 mm, 2–neft mahsuloti rezervuarining hajmi 5000 m³. Neft mahsulotining zichligi 800 kg/m³. Rezervuar tubi devorining qalinligi. Qoplamaning qalinligi 3 mm. Hisobiy kuchlanish 1275×10⁵ Pa. 1 ta belbog'ning balandligi 1860 mm

1–Neft mahsuloti uchun:

$$V = 3000 \text{ m}^3$$

$$\rho = 750 \text{ kg/m}^3$$

$$\delta_m = 3 \text{ mm} = 0,003 \text{ m}$$

$$\delta_o = 2 \text{ mm} = 0,002 \text{ m}$$

$$g = 9,8 \text{ m/s}^2$$

$$\alpha = 0,005 \text{ m}$$

$$\sigma_p = 1275 \cdot 10^5 \text{ Pa}$$

$$\alpha = +\delta_o$$

$$\pi = 3,14$$

$$h = 1499 \text{ mm} = 1,499 \text{ m}$$

Mavzu: Temir yo‘l estakadalarining texnik iqtisodiy hisoblari.

Hisobni bajarishdan maqsad tsisternaning sonini, estakadalar sonini aniqlash, temir yo‘l estakadalarining uzunligini aniqlash kiradi.

TSisternaning maksimal soni quyidagicha aniqlanadi:

$$n_y = \frac{Q}{30G}, \quad n_s = \frac{n_m T}{24}$$

Q – neft omborining maksimal yuk ko‘taruvchanlik qobiliyati

n_m – marshrutlar (tsisternalar) sonini 1 sutkada neft bazaga kelishi

T – temir yo‘l marshrutining estakada bo‘lish vaqti

G – 1 ta tsisternaning yuk ko‘tarishi

